



SAMMITDA HAMDO‘STLIK DOIRASIDAGI O‘ZARO MANFAATLI HAMKORLIKNI YANADA KENGAYTIRISH BO‘YICHA QATOR TASHABBUSLAR ILGARI SURILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 13-oktabr kuni Bishkek shahrida Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida ishtirok etdi.



Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov raisligida o‘tgan sammit ishida Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov va MDH bosh kotibi Sergey Lebedev ham qatnashdi.

Kun tartibiga muvofiq, MDH doirasidagi ko‘p qirrali munosabatlarning holati va istiqbollari yuzasidan fikr almashildi, amaliy hamkorlikning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida Hamdo‘stlik doirasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish bo‘yicha qator tashabbuslarni ilgari surdi.

O‘zbekiston Prezidenti mavjud imkoniyatlarni birgalikda baholash va o‘zaro muvofiqlashtirilgan choralar

ko‘rish uchun MDHdek noyob platformani ishga solish muhimligini alohida qayd etdi. Shu ma’noda, ko‘p tomonlama hamkorlikning yangi uzoq muddatli kun tartibini ishlab chiqish maqsadida MDH mamlakatlarining yetakchi tahlil markazlari va ekspertlarining konferensiyasini tashkil etish taklif qilindi.

Mamlakatimiz yetakchisi Hamdo‘stlik mamlakatlarida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash zarurligini ta’kidladi.

Tashkilot makonida istisno va cheklolrsiz to‘laqonli erkin savdo hududini shakllantirish muhimligiga e’tibor qaratildi. Shu munosabat bilan tegishli shartnoma qoidalarini qayta ko‘rib chiqish taklif etildi.

O‘zbekiston Prezidenti mamlakatlar o‘rtasidagi tovar ayirboshlashda mavjud mexanizmlarni samarali ishga solishga chaqirdi va uni rag‘batlantirishning yangi vositalarini taklif qildi.

Davlatimiz rahbari o‘zaro investitsiyalarni rag‘batlantirish va loyihalarni ilgari surish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish hamda MDH mamlakatlarining Sanoat kooperatsiyasi va innovatsion ishlarni forumini o‘tkazish tashabbusini ilgari surdi.

Energetika va oziq-ovqat sohaslarida hamkorlik qilish, iqtisodiyotning tegishli tarmoqlarida ilg‘or texnologiyalarni joriy etish va kooperatsiyani kuchaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi hamkorlik bo‘yicha yangilangan dasturni hamda Agrosanoat majmuidagi kooperatsiyaning asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risidagi bitimni tayyorlash taklif qilindi.

O‘zbekiston yetakchisi hududlararo hamkorlikni faollashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni tayyorlash tashabbusi bilan chiqdi, transport jihatidan o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirish, yo‘lovchi va yuk tashishni ko‘paytirish yuzasidan aniq chora-tadbirlarni ko‘rsatib o‘tdi.

Global iqlim isishi oqibatlariga qarshi kurashishda sa‘y-harakatlarni birlashtirish muhimligi qayd etildi. Kelgusi yilda Samarqandda o‘tkazilishi rejalashtirilgan BMT shafeligidagi Xalqaro iqlim forumi doirasida MDH makonidagi ekologik

xavf-xatarlarga bag‘ishlangan maxsus yalpi sessiyani tashkil etishga tayyorlik bildirildi.

Gumanitar soha haqida so‘z yuritilgan ekan, 2024-yilda Hamdo‘stlikning madaniy poytaxti, deb e’lon qilingan Samarqand shahrida MDH madaniyat, san’at va kino haftaligini o‘tkazish taklif qilindi.

Shuningdek, kelgusi yilda MDHning yoshlar poytaxti maqomini olgan Toshkent shahrida bir qator yoshlarga oid tadbirlar, shu jumladan, futbol musobaqasi bo‘lib o‘tadi.

Mamlakatimiz yetakchisi o‘z so‘zida ta’lim sohasida va sayyohlik almashinuvini rivojlantirish borasida ham muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Nutqining so‘ngida O‘zbekiston Prezidenti Rossiya Federatsiyasi Prezidentini 2024-yilda Tashkilotga raislikni qabul qilib olgani bilan tabrikлади.

Sammit yakunida MDH doirasidagi hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha qator bitim va qarorlar qabul qilindi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi Davlat rahbarlari kengashi majlisi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashga qo‘shgan ulkan hissasi uchun tashkilotning oliy mukofoti — MDH Faxriy nishoni doirasidagi hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari bo‘lib o‘tdi.

Ta’kidlash joizki, keyingi bir necha yilda O‘zbekistonning Hamdo‘stlik ishidagi ishtiroki faollashdi.

Mamlakatimiz MDHning tarmoqlar bo‘yicha hamkorlikning 24 ta organiga qo‘shildi, 65 ta tuzilmasi faoliyatida to‘liq ishtirok etmoqda.

Ushbu davrda O‘zbekiston Prezidenti tomonidan ko‘plab muhim yo‘nalishlar yuzasidan qariyb 70 ta tashabbus ilgari surildi. Ularning aksariyati Hamdo‘stlikka a‘zo mamlakatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, ro‘yobga chiqarildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev MDH sammiti doirasida Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Ikki tomonlama munosabatlarning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Yetakchilar O‘zbekiston va Belarus o‘rtasidagi ko‘p qirrali aloqalar jadal rivojlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdilar.

O‘zaro tovar ayirboshlash ko‘rsatkichlari o‘smoqda, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish davom etmoqda.

Madaniyat, kinematografiya va sport sohasida qo‘shma tadbirlar muntazam o‘tkazib borilmoqda.

Davlat rahbarlari savdo-iqtisodiy va gumanitar hamkorlikni yanada kengaytirish bo‘yicha o‘zaro muvofiqlashtirilgan choralarni ko‘rish, jumladan, Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig‘ilishi, Hududlar forumi hamda O‘zbekiston va Belarus yetakchi oliy ta’lim muassasalari rektorlarining uchrashuvini tashkil etish muhimligini qayd etdilar.

MDH va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasidagi hamkorlik yuzasidan fikr almashildi.

Bo‘ljak tadbirlar rejasini ham ko‘rib chiqildi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qirg‘iz Respublikasiga amaliy tashrifi yakunlandi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEYEVNING MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO‘STLIGI DAVLAT RAHBARLARI KENGASHI MAJLISIDAGI NUTQI

Qadrlil hamkasblar!

Avvalo, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti, hurmatli Sadir Nurg‘ojoyevich Japarovga an’anaviy iliq qabul va sammitni yuksak darajada tashkil etgani uchun bildirilgan minnatdorlik so‘zlariga qo‘shilaman.

Biz O‘zbekistonda Qirg‘izistonning Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga raisligining samarali yakunlarini yuksak baholaymiz.

Bu davrda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish borasida katta ishlar amalga oshirildi, ko‘p tomonlama qator muhim hujjatlar, jumladan, Xizmatlarning erkin savdo zonasini to‘g‘risidagi bitim qabul qilindi.

Biz, shuningdek, kun tartibini va ushbu yig‘ilish uchun tayyorlangan qarorlar loyihalarini qo‘llab-quvvatlaymiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari! Bizning uchrashuvimiz global geosiyosiy keskinlik kuchayayotgan bir sharoitda o‘tmoqda. Barcha hamkasblarimiz o‘z chiqishlarida oldimizda turgan umumiy tahdid va xavf-xatarlarni qayd qilib o‘tdilar.

Ming afsuski, dunyoning turli mintaqalaridagi keskinlashib borayotgan ziddiyatlarning oqibatlarini barcha mamlakatlarimizning barqaror rivojlanishiga o‘ta salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bunday vaziyatda biz MDH bo‘yicha sheriklarimiz bilan hamkorlikning yangi yo‘llari va mexanizmlarini izlashda davom etamiz.

Gap, avvalo, muqobil savdo-logistika yo‘nalishlarini shakllantirish, qo‘shilgan qiymatning qisqa va yanada samarali

zanjirlarini yaratish, mamlakatlarimiz iqtisodiyotidagi bir-birini to‘ldiradigan zaxiralardan imkon qadar yuqori darajada foydalanish, biznes aloqalarini rag‘batlantirish haqida bormoqda.

Biz paydo bo‘ladigan xavf-xatarlarni birgalikda baholash, muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlar va nostandart qarorlarni qabul qilish uchun MDH doirasidagi ko‘p qirrali hamkorlikning noyob platformasi to‘liq ishga solinishidan manfaatdormiz.

Shu munosabat bilan Hamdo‘stlikning uzoq muddatli yangi kun tartibini ishlab chiqish uchun mamlakatlarimizning yetakchi tahlil markazlari va ekspertlari ishtirokida konferensiya tashkil etish imkoniyatini ko‘rib chiqishni taklif qilaman.

Qadrlil hamkasblar!

Joriy yil boshidan buyon O‘zbekistonning Hamdo‘stlik mamlakatlari bilan tashqi savdo hajmi atigi 5 foizga oshdi. Shu bilan birga, o‘shir sur’atlarining sekinlashish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Yuqori darajadagi ekspertlarimiz uchrashuvlari natijalari to‘laqonli erkin savdo zonasini shakllantirish yo‘lida hali ham ko‘plab to‘siqlar mavjudligidan dalolat beradi.

Biz quyidagilarni taklif etamiz:

Birinchidan, Erkin savdo hududi to‘g‘risidagi shartnomaning tovarlarni olib qo‘yishga doir qoidalarini qayta ko‘rib chiqish. Shartnoma imzolanganidan buyon yetarlicha vaqt o‘tdi hamda ushbu hujjatni bizning asosiy maqsad va vazifalarimiz bilan to‘liq muvofiqlashtirish vaqti keldi;

ikkinchidan, import o‘rnini bosishga qaratilgan milliy dasturlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish;

uchinichidan, davlat xaridlari bozoriga imtiyozli kirish huquqini o‘zaro kelishuv asosida taqdim etish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish;

to‘rtinchidan, qo‘shma ulgurji taqsimlash va logistika markazlarini tashkil etishni qo‘llab-quvvatlash dasturini qabul qilish;

beshinchidan, elektron savdoni rivojlantirishni, jumladan, mavjud platformalarni kengaytirish yo‘li bilan rag‘batlantirish.

Yana bir muhim jihat bu — o‘zaro savdodagi texnik to‘siqlar va muvofiqlikni baholash bo‘yicha ishlar natijalarini tan olish to‘g‘risidagi MDH bitimlarining qabul qilinishini jadallashtirishdan iborat.

Ushbu masalalarning barchasi Hamdo‘stlik Iqtisodiy kengashining navbatdagi yig‘ilishi kun tartibiga kiritilishi zarur.

Sanoat kooperatsiyasi istiqbollari masalasiga alohida to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Bugungi kunda MDH mamlakatlari bilan qo‘shma investitsiya loyihalariga doir portfelimiz hajmi 25 milliard dollardan oshdi.

Yaqinda qabul qilingan Sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq, Hamdo‘stlikka a‘zo davlatlarning Sanoat siyosati bo‘yicha kengashi doirasida o‘zaro investitsiyalarni rag‘batlantirish va loyihalarni ilgari surish hamda texnoparklarni tashkil etish bo‘yicha Qo‘shimcha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taklif qilaman.

Bunda xaridlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, sug‘urta hisobidan qoplab berish va off-teyk xarid masalalarini puxta o‘ylab ko‘rish muhimdir.

Kelgusi yilning aprel oyida Toshkent shahrida o‘tkazilishi rejalashtirilgan “IN-NOPROM” sanoat haftaligi doirasida MDH mamlakatlarining sanoat kooperatsiyasi va innovatsion ishlarni forumini o‘tkazishga ham tayyormiz.

Energetika sohasida MDHga a‘zo har bir mamlakatning elektr energiyasini ishlab chiqarish va iste’mol qilish imkoniyatlarini hisobga olgan holda, energiya tizimlarimiz yaxlit holda ishlay oladigan sharoitlarni yaratish zarur, deb hisoblaymiz.

Yana bir ustuvor vazifa — Hamdo‘stlik davlatlarida iste’molchilarni yuqori sifatli va arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashdan iborat.

Shu munosabat bilan agrosanoat komplekslari, logistika va “ekspress” koridorlarning o‘zaro bog‘liqligini kuchaytirish, tarmoqni texnologik modernizatsiya qilish va tizimli ilm-fan almashinuvi masalalarini hal etish talab etiladi.

Amaldagi tarmoq kengashi doirasida Oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi yangilangan hamkorlik dasturini va Agrosanoat sektorida kooperatsiyaning asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risidagi bitimni tayyorlashni taklif qilamiz.

Hududlararo hamkorlik juda katta imkoniyatga ega ekanini ta’kidlab o‘tmoqchiman. Bunday sheriklikni qo‘llab-quvvatlash choralari o‘z ichiga olgan alohida “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish, jumladan, hududlarning birinchi

Forumini, ko‘rgazma va yarmakalarni hamda ishbilarmon doiralari vakillarining o‘zaro tashriflarini o‘tkazish zarur, deb hisoblaymiz.

Transport sohasida quyidagi imkoniyatlarni yaratish tarafdorimiz:

— transportning barcha turlarida multimodal tashuvlarni tashkil etish orqali transport koridorlarini rivojlantirish;

— asosiy mintaqaviy koridorlar orqali yuklarni tashishda biznes uchun jozibador shartlarni shakllantirish;

— yo‘lovchi va yuk tashishda boshqarish jarayonlarini va ko‘rsatiladigan xizmatlarni raqamlashtirish;

— transport infratuzilmasi va harakat tarkibini modernizatsiya qilish dasturlari va loyihalarini amalga oshirish.

Biz, shuningdek, MDHning Davlatlararo ekologik kengashiga O‘zbekistonning qo‘shilishi to‘g‘risida qaror qabul qildik.

Kelgusi yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida Samarqandda o‘tkazilishi rejalashtirilgan Xalqaro iqlim forumi doirasida Hamdo‘stlik davlatlari hududidagi ekologik tahdid va xavf-xatarlarga bag‘ishlangan maxsus yalpi sessiyani o‘tkazishni taklif qilamiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Qadimi Samarqand shahriga 2024-yilda “Hamdo‘stlikning madaniyat poytaxti” maqomini berish masalasini qo‘llab-quvvatlaganingiz uchun sizlarga chuqur minnatdorlik bildiraman.

Shu munosabat bilan kelgusi yil barcha Samarqandda MDH davlatlarining madaniyat, san’at va kino haftaligini o‘tkazishni taklif qilamiz.

Yoshlar siyosati sohasidagi hamkorlikni faollashtirish masalasi, ayniqsa, dolzarb ahamiyatga egadir.

Biz yangi qo‘shma loyihamiz doirasida kelgusi yilda “Hamdo‘stlikning yoshlar poytaxti” deb e’lon qilingan Toshkent shahrida tadbirlarga boy dasturni tayyorlayapmiz.

Shuningdek, “Hamdo‘stlik kubogi” futbol turnirini qayta tiklash va yoshlarimiz jamoalari o‘rtasida navbatdagi uchrashuvlarni O‘zbekistonda o‘tkazishni taklif qilaman.

Xalqaro rus tili tashkilotini ta’is etish to‘g‘risidagi shartnomani qabul qilishni qo‘llab-quvvatlaymiz.

Rus tilida ta’lim beradigan texnik mutaxassisliklar bo‘yicha o‘qituvchilarni tayyorlash dasturini ishlab chiqishni muhim, deb hisoblaymiz.

Hamdo‘stlikning yagona turistik makonini targ‘ib qilish doirasida qo‘shma dasturlar va turistik mahsulotlarni amalga oshirishda faol ishtirok etishga tayyormiz.

Qadrlil hamkasblar!

Rossiya Federatsiyasi tomonidan kelgusi yil uchun Hamdo‘stlikka raislikning qabul qilib olinishi munosabati bilan hurmatli Vladimir Vladimirovich Putin nomiga bildirilgan tabrik so‘zlariga qo‘shilaman.

Ushbu muhim va mas’uliyatli vazifani bajarishda chin dildan omadlar tilayman. So‘zimgin yakunida O‘zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi doirasida ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish tarafdori ekanini yana bir bor tasdiqlayman.

E’tiboringiz uchun rahmat.



HUDUDLAR HAYOTI

QIZILTEPA: TASHABBUSLAR RO‘YOBGA
CHIQUYOTGAN MANZIL

Qiziltepa tumanining Tavois mahallasi aholisi uchun uzoq yillar imkonsiz tuyenulgan masalalar ijobiy yechim topmoqda. Jumladan, yo‘l, ichimlik suv, elektr ta‘minoti bilan bog‘liq muammolar bosqichma-bosqich hal etilmoqda. Xususan, “Navoiy suv ta‘minoti” mas‘uliyati cheklangan jamiyati Qiziltepa tuman bo‘limi tomonidan ichimlik suv tarmog‘i tortilishi bilan mahalla ahlining bir necha yillik orzusi ushaldi.

Prezidentimizning 2022-yil 25-oktabrdagi “2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan tumanda 36,1 milliard so‘mlik mablag‘ hisobidan jami 140,9 kilometr uzunlikda ichimlik suv tarmog‘i tortish rejalashtirilgan. Shuningdek, elektr ta‘minotidagi uzilishlarga ham barham berish choralari ko‘rilyapti. Jumladan, Tavois mahallasida 2 ta yangi transformator punkti o‘rnatilib, 4 kilometr dan ortiq elektr energiyasi tarmog‘i ta‘mirlandi. Bundan tashqari, tumanda muqobil energiyadan foydalanish, quyosh panellarini o‘rnatish ishlari ham davom ettirilmoqda. Huddagi yo‘lsozlik ishlari avjida. Aholining uzog‘ini yaqin, mushkulini oson qiluvchi tekis va ravon yo‘llar barpo etilmoqda.

Tumanda o‘tgan yillar mobaynida amalga oshirilayotgan qurilish va bunyodkorlik ishlari natijasida hudud infratuzilmasi yaxshilanmoqda, qator ijtimoiy

soha obyektlari o‘zgacha qiyofa kasb etmoqda, yangi ko‘p qavatli turar joy binolari qurilmoqda. Eksportbop va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish ko‘lami kengaydi, natijada ko‘plab yangi ish o‘rinlari yaratildi. Tadbirkorlar yurti bo‘lgan Qiziltepa tumaniga investorlarning qiziqishi ortib bormoqda.

— Tumanimizda joriy yilning o‘tgan davrida qiymati 446 milliard so‘mlik qurilish-ta‘mirlash ishlari bajarildi. Jumladan, 70 kilometr ichki yo‘llar, 48 kilometr umumfoydalanishdagi yo‘llar asfaltlashtirildi. Bundan tashqari, 200 kilometrga yaqin ichimlik suv tarmog‘i yangidan tortilib, 5 ta yangi ichimlik suv inshooti qurildi. 20 kilometr elektr energiyasi tarmog‘i yangilandi. 5 ta yangi mahalla binosi, 2 ta maktab va

1 ta ta‘lim muassasasi barpo etilib, foydalanishga topshirildi. Tuman markazi va hududlarda ko‘p qavatli uylar qurilishi davom etmoqda. “Yangi O‘zbekiston” massividagi yangi ko‘p qavatli uy-joylar

tumanimiz aholisi uchun juda quvonchli bo‘ldi, — deydi Qiziltepa tumani hokimi o‘rinbosari Hasan Aliyev.

Tumanda ta‘lim tizimida ham islohotlar davom ettirilmoqda. Ta‘limda sifat va samaradorlikka erishish esa bog‘chadan boshlanadi. Hozirda farzandlarimiz maktabga borishdan oldin ushbu muassasalarda saboq chiqarib, tarbiyalanyapti. Chet tillarida ham yoshiga mos bilimga ega bo‘lyapti. Musiqa va san‘at, sport bo‘yicha turli to‘g‘arak mashg‘ulotlari kelajak avlodning ham jismonan, ham ma‘nan kamol topishiga yordam beryapti. E‘tiborli jihati, ular doim shifokorlar nazoratida. Mutaxassislar maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga borib, bolalarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazib, kerakli tavsiyalar berib, zarurat tug‘ilsa, muolaja qilmoqda. Bugungi kunda tumanda 177 ta, ya‘ni 37 ta davlat,

140 ta nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkiloti mavjud bo‘lib, huddagi 3-7 yoshgacha bo‘lgan 12 mingdan ortiq bolaning 75,6 foizi qamrab olingan.

Tumanda 39 ta umumiy o‘rta ta‘lim, 2 ta ixtisoslashtirilgan davlat umumta‘lim maktabi hamda 1 ta ayrim fanlar chuqur o‘rgatilishga ixtisoslashgan maktab-internati va 1 ta barkamol avlod bolalar maktabi mavjud. O‘qituvchilarning o‘z ustida doimiy ishlashi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va samarali o‘qitish metodlaridan foydalanishi ta‘lim sifati oshishiga yordam beryapti.

Xususan, 2022-2023-o‘quv yilida 270 ta chet tili fan o‘qituvchilaridan 243 tasi xalqaro sertifikatga ega bo‘ldi. Ona tili va adabiyot, informatika va axborot texnologiyalari, matematika, kimyo, tarix, rus tili fan o‘qituvchilaridan 230 nafari xalqaro va milliy sertifikatlarni



Tumanda 39 ta umumiy o‘rta ta‘lim, 2 ta ixtisoslashtirilgan davlat umumta‘lim maktabi hamda 1 ta ayrim fanlar chuqur o‘rgatilishga ixtisoslashgan maktab-internati va 1 ta barkamol avlod bolalar maktabi mavjud. O‘qituvchilarning o‘z ustida doimiy ishlashi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va samarali o‘qitish metodlaridan foydalanishi ta‘lim sifati oshishiga yordam beryapti.

qo‘lga kiritdi. Shuningdek, maktablarda o‘quvchilarga sifati ta‘lim berish maqsadida munosib sharoitlar yaratilgan. Jumladan, tuman ixtisoslashtirilgan maktabi o‘quvchilari joriy o‘quv yilini yangi binoda boshladi. 11,5 milliard so‘mlik mablag‘ evaziga zamonaviy tipda qurib, foydalanishga topshirilgan maktabning laboratoriya va robototexnika o‘quv xonalari ham xorijdan keltirilgan eng so‘nggi zamonaviy jihozlilar bilan ta‘minlandi. Tabiiyki, o‘quvchilarning bunday sharoitda bilim olish va innovatsion g‘oyalari ustida ishlash ishtiyoqi ham kuchli bo‘ladi.

— Maktabimizda 310 nafar o‘quvchiga aniq va tabiiy fanlar bo‘yicha ixtisoslashtirilgan tarzda ta‘lim beriladi. Har chorakda o‘qituvchilar malakasi va o‘quvchilarimiz bilimi sinovdan o‘tkazib boriladi. Ana shunday baholash tizimi bo‘yicha maktabimiz respublikadagi ixtisoslashtirilgan maktablar o‘rtasida bir necha marotaba birinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi. Maktabimizdagi ta‘lim samarasiga e‘tibor bering: o‘tgan o‘quv yilida bitiruvchilarning barchasi oliy ta‘lim muassasalariga qabul qilinib, talaba bo‘ldi, — deydi Qiziltepa tumani ixtisoslashtirilgan maktabi direktori Mehriniso Zolova.

Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, Qiziltepani tadbirkorlar yurti, deb ta‘riflashadi.

Bu bejiz emas, albatta. Har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichi ishlab chiqarish, tadbirkorlik sohalari bilan bog‘liq. Tumanda faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari tomonidan joriy yilning birinchi yarim yilligida 912 milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va o‘shish o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 108,3 foizni tashkil etdi. Shuningdek, 283 milliard so‘mlik iste‘mol tovarlari ishlab chiqarildi.

Qiziltepa tumani innovatsion hudud bo‘lib, tadbirkor va ishbilarmonlar sohaga yangilik kiritish, hududning investitsion jozibadorligini oshirish, eksportni kengaytirishga katta ulush qo‘shyapti. Rossiya bilan hamkorlikda investitsiya dasturi asosida qurilish qo‘lloplari ishlab chiqarishga mo‘ljallangan, qiymati 10 million dollarlik yangi loyiha amalga oshirilmoqda. Hozirda loyihaning birinchi bosqichi ishga tushirildi va 140 ta yangi ish o‘rni yaratildi. Loyiha to‘liq amalga oshirilgach, korxonada 1200 dan ortiq ishchi-xodim mehnat qiladi. Ishlab chiqariladigan mahsulotlar to‘liq eksportga yo‘naltiriladi. Hozirda Rossiyaga yetkazib berish boshlangan. Bunday muvaffaqiyat zamirida tadbirkorlarning davlatimiz tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, berilayotgan imkoniyat va imtiyozlar mujassam.

Tadbirkorlik yo‘nalishida qulay ish-bilarmonlik muhiti, qolaversa, yoshlar yetakchilari tavsiyasi bilan berilayotgan ko‘maklardan yoshlar ham samarali foydalanmoqda.

Navqiron mahallasida yashovchi Qodirjon Karimov bedanachilik bilan shug‘ullanib, oilasiga daromad keltirmoqda. Faoliyatini boshlash uchun unga dastlab 12 million so‘mlik inkubator apparati subsidiya asosida berilgan edi. Ayni vaqtda Qodirjon faoliyatini yanada kengaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish bilan tengdoshlari bandligini ta‘minlashni maqsad qilgan.

Albatta, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning tashabbus va g‘oyalari, takliflari inobatga olinib, zarur yordam ko‘rsatayotgani o‘z samarasini bermoqda. Gumbaz mahallasida istiqomat qiluvchi 27 yoshli Yorqinoy Yoqubovaning ham taklifi inobatga olinib, unga subsidiya asosida pech olib berilgan edi. Hozirda u oilaviy tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yib, konditer mahsulotlari ishlab chiqarmoqda. Qaynana-kelin tayyorlayotgan shirinliklar tumanda xaridorgir.

— Oilaviy tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishni rejalashtirishda dastlab ikkilandim. Ammo yoshlar yetakchisiga taklifimni bildirganimda mutasaddilar har tomonlama qo‘llab-quvvatladi. Ularning ko‘magi bilan subsidiya asosida pech berildi. Mutaxassislar ham maslahatlarini ayamadi. Ayni vaqtda ishlab chiqarish jarayonini yanada kengaytirish bo‘yicha yangi rejalarda asosida amaliy ishlarga kirishganmiz, — deydi Yorqinoy Yoqubova.

Bir so‘z bilan aytganda, aholining turmush sharoitini yaxshilash, turar joy hamda ish bilan ta‘minlash, sifati tibbiy xizmat ko‘rsatish, ijtimoiy muammolarini ijobiy hal etish, kelajak avlodning ta‘lim-tarbiyasi bo‘yicha olib borilayotgan ishlar ko‘lami keng va salmoqli. Muhimi, barchasi inson qadri uchun va Qiziltepa tumani aholisi buni o‘z hayotida his etib, amaliy ifodasini ko‘rmqda.

**G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**



TURIZM

DUNYO NIGOHI YANA
Samarqandda

Shu kunlarda qadimiy va navqiron Samarqandda butun dunyo ahlining e‘tiborini o‘ziga jalb etadigan yana bir muhim xalqaro anjumanga qizg‘in taraddud ko‘rilmoqda. Bu azim diyorda joriy yil 16–20-oktabr kunlari Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh assambleyasining 25-yubiley sessiyasi bo‘lib o‘tadi.



Aytish joizki, O‘zbekiston o‘z tarixida birinchi marta BMT oilasiga kiruvchi tashkilotning eng muhim tadbiri hisoblangan va ikki yilda bir marta o‘tkaziladigan Bosh assambleyaga mezbonlik qilmoqda.

Kuni kecha bo‘lib o‘tgan turizm va madaniyat maskanlari imkoniyatini to‘liq ishga solish, “Yashil makon” umummilliy loyihasining kuzgi mavsumini tashkil etish masalalari yuzasidan bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida davlatimiz rahbari shu xususida to‘xtalib, ushbu tadbir mamlakatimizning turizm salohiyatini ko‘rsatish uchun juda katta imkoniyat ekanini alohida ta‘kidladi.

Shu bois, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardan soha vakillarini jalb qilib, har bir hududning tarixi, tabiati, madaniyati, ziyoratgohlari, ovqatlari, sayyohlik maskanlari va marshrutlarini namoyish etish, loyihalar taklif qilib, kelishuvlarga erishish zarurligi ta‘kidlandi. Turistlarni yanada keng jalb qilish maqsadida nafaqat sayyohlik, balki xalqimiz o‘zligi, milliy qadriyat va an‘analimizni namoyon etuvchi madaniy tadbirlarni ko‘paytirish topshirig‘i berildi.

Qayd etish joizki, O‘zbekiston 2023-2027-yillar uchun UNWTO ijroiya kengashining vakolatlar bo‘yicha qo‘mitasi a‘zoliciga qabul qilindi. Bu UNWTO ijroiya kengashi tomonidan qabul qilinadigan muhim qaror va hujjatlar, ularda a‘zo davlatlar ishtirokining haqqoniyligi va tamoyillarga mosligini nazorat qilish vakolati O‘zbekistonga ishonib topshirilganini bildiradi. Mamlakatimizga xalqaro miqyosda bildirilgan bunday ishonch yurtimizning nafaqat jahon turizm bozoridagi pozitsiyasi mustahkamligini, balki xalqaro munosabat-



lardagi faoliyati ham nechog‘liq samarali ekanini namoyon qiladi.

Darhaqiqat, so‘nggi yillarda O‘zbekiston yuritlayotgan progressiv va tinchlikparvar tashqi siyosat tufayli mamlakatimiz tashqi dunyoga ochildi, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv kuchaydi. Ko‘plab xorijiy mamlakatlar fuqarolari uchun yurtimizga viza olish tartibi bekor qilindi yoki soddalashtirildi. Inson huquqlarini ta‘minlash borasida olib borilayotgan tarixiy o‘zgarishlar, ochiqlik, oshkoralik, shaffoflikning kengaygani, erkinlik, tinchlik-xotirjamlik barqarorligi O‘zbekistonning xalqaro maydondagi mavqei yanada mustahkamlandi. Bu, o‘z navbatida, yurtimizga kelayotgan chet ellik sayyohlar soni bir necha barobar ortishiga sabab bo‘ldi.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining Turizm qo‘mitasidan ma‘lum qilishlaricha, joriy yilning to‘qqiz oyida mamlakatimizga xorijdan 4,3 million sayyoh tashrif buyurgan. Bu raqam

2022-yilning shu davri bilan solishtirilganda 20 foiz ko‘p. Shuningdek, ichki sayyohlar soni qariyb 15 millionni tashkil etdi va bu boradagi reja 124 foizlik ko‘rsatkichga yetdi.

Sayyohlik infratuzilmasini takomillashtirish borasida ham yaxshi ko‘rsatkichlarga erishildi. Xususan, 125 ta yangi mehmonxona, 96 ta xostel barpo etildi. Endilikda jami joylashtirish vositalari soni 1894 ta, ulardagi o‘rinlar soni qariyb 98 mingga yetdi. 239 ta oilaviy mehmon uylari tashkil etilib, ularning umumiy soni 3215 taga bordi, o‘rinlar soni 28 mingdan oshirdi. Turistlariga xizmat ko‘rsatuvchi 559 ta yangi

tashkilot va turagentlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Natijada sayyohlarga xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan shunday tuzilmalar soni ikki ming to‘rt yuzdan ziyodni tashkil etmoqda.

Sayyohlar tashrif buyuradigan inshootlar, avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari, yo‘l bo‘ylari, aholi gavjum joylarda yetti yuzdan ko‘proq sanitariya-gigiyena shoxobchasi qurildi va ta‘mirlandi. 15 ta turizm axborot markazi tashkil etildi va bunday tuzilmalar soni 168 taga yetdi. Yil yakuniga qadar bunday axborot markazlari sonini 173 taga yetkazish rejalashtirilgan.



O‘zbekiston juda katta turizm va rekreatsiya salohiyatiga ega, unda jami 8,2 ming madaniy meros obyekti mavjud. Ulardan 209 tasi to‘rtta muzey shaharlar — Xiva shahridagi Ichangal’a, Buxoro, Shahrisabz hamda Samarqand shaharlarining tarixiy markazlarida joylashgan bo‘lib, UNESCO butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan.



Sohani rivojlantirish, xizmat ko‘rsatish sifati va samaradorligini oshirishga qaratilayotgan ana shunday izchil e‘tibor tufayli yurtimizda joriy yilning 9 oyida 1,7 milliard dollarlik turizm xizmati eksporti amalga oshirildi. Yil boshidan buyon turizm va unga yondosh sohalarda 61 ming yangi ish o‘rni yaratildi.

— Yil yakuniga qadar bu ko‘rsatkichlarni yanada oshirish maqsad qilingan, — deydi Turizm qo‘mitasi boshqarma boshlig‘i, iqtisod fanlari doktori Shuhrat Isoqulov. — Xususan, xorijli sayyohlar sonini 7 million, mahalliy sayyohlarni esa 20 millionga yetkazish rejalashtirilgan. Natijada sohada o‘tgan yilga nisbatan ikki barobar o‘shishga erishiladi va turizm xizmati eksporti hajmi 2 milliard dollarga yetkaziladi.

O‘zbekiston juda katta turizm va rekreatsiya salohiyatiga ega, unda jami 8,2 ming madaniy meros obyekti mavjud. Ulardan 209 tasi to‘rtta muzey shaharlar — Xiva shahridagi Ichangal’a, Buxoro, Shahrisabz hamda Samarqand shaharlarining tarixiy markazlarida joylashgan bo‘lib, UNESCO butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

Mamlakatimizda turizm sohasini bir paytning o‘zida ham milliy, ham zamonaviy mezonlar asosida rivojlantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda har bir hududning o‘ziga xos xususiyati, qulay va tabiiy imkoniyatlaridan unumli foydalanishga katta e‘tibor qaratilyapti.

Xususan, o‘tgan yil Samarqandda “Buyuk ipak yo‘li” xalqaro turizm markazining barpo etilishi soha rivojida muhim qadam bo‘ldi. Bu

ko‘p tarmoqli markaz tarkibida 8 ta zamonaviy mehmonxona, Kongress xoll, “Boqiy shahar” majmuasi, amfiteatr va ko‘plab boshqa inshootlar bor. U yiliga 2 million turistga xizmat ko‘rsatishi mumkin.

Prezidentimiz 2022-yil 19-sentabr kuni mamlakatimizning ichki va tashqi turizm salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari yuzasidan o‘tkazgan videoselektor yig‘ilishida soha mutasaddilariga elchixonalar va xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda “Samarqand — Yangi O‘zbekistonning turizm darvozasi” brendini targ‘ib qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar bergan edi. Ayni paytda bu yo‘nalishda keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasining Samarqandda o‘tkazilishi mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik ko‘lamini yanada kengaytirish, madaniy va turizm salohiyatini targ‘ib qilishda yangi imkoniyatlar taqdim etadi.

Forum turizm sektoridagi imkoniyatlarni o‘rganish uchun global manfaatdor tomonlarni, sanoat rahbarlarini va investorlarni birlashtiradi. Mamlakatimizda yaratilgan qulay investitsiya muhiti hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etishning mustahkam huquqiy asoslarini namoyish qilish, shuningdek, ishtirokchilar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga zamin yaratadi.

**Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

f yuz.uznews

yuz_official

yuz.uz_news

O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI 2030

MILLIY TRANSPORT LOGISTIKASI TIZIMI

NAFAQAT YO‘LLARNI, BALKI IQTISODIY ALOQALARNI HAM BOG‘LAYDI

Ubaydullo G‘AFUROV, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Iqtisodiyotda ishlab chiqarish qanchalik muhim bo‘lsa, mahsulotni o‘z vaqtida va sifatli yetkazib berish, ya‘ni tezkor transport xizmatlari ko‘rsatish ham shunchalik zarurdir. Davlatlar o‘rtasidagi savdo aloqalari rivoji ham ko‘p jihatdan transport logistikasiga bog‘liq. Avvallari bu vazifani savdo karvonlari zimmasiga olgan bo‘lsa, bugunga kelib hech bir mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini zamonaviy transport logistikasiz tasavvur etib bo‘lmaydi.



Gap yo‘l infratuzilmasini yaxshilash, ichki va tashqi transport tashuvlarini kengaytirish, jahon bozoriga olib boruvchi yangi yo‘llar ochish, yuk tashuvlarida eng zamonaviy transport vositalaridan foydalanish kabilar haqida bormoqda. Hozir bu davlatlar iqtisodiy rivojida asosiy o‘rinni egallayotgan jihatlardan biri. Boisi, samarador logistika tashqi bozorda mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirish bilan birga, jahon iqtisodiyotiga integratsiya jarayonini tezlashtiradi.

O‘zbekiston buning yaqqol misoli. Yaqin yillargacha milliy transport logistikasi tizimi deyarli e‘tibordan chetda qolgan sir emas. Asosiy yuklarimiz Qozog‘iston tranzit yo‘laklari orqali tashilgan va bu yo‘nalish imkoniyatlari ehtiyojlarimizni to‘la qondira olmagan. Tovarlarini yurtimiz hududiga olib kirishda elektrovozlar, zamonaviy terminallar yetishmasligi, temir yo‘l tarmoqlaridagi bandlik mahsulotlarning muayyan muddat qolib ketishiga sabab bo‘lib, iqtisodiyotimizga salbiy ta‘sir ko‘rsatgani rost. Umumman, bu yo‘nalishda eskicha usulda ishlab kelingan va yangilanishga harakat bo‘lmagan. Balki shuning uchundir, sohada olti yil oldin boshlangan tubdan yangilash ishlari oson kechmayapti.

Shunga qaramay, qisqa vaqtda yurtimiz milliy transport logistikasi tizimining yangi

oladi. Biz transport vositalari sifatida biladigan avtotransport, temir yo‘l, havo yo‘llari, metropoliten tizimlari ilgari alohida tashkilotlar tarzida faoliyat yuritib kelgan. Davlatimiz rahbarining qarori bilan 2019-yilda ularning bari Transport vazirligi negizida birlashtirildi. Bugun ular sohada mavjud muammolarni umumiy, deb bilgani holda, islohotlarni ham birgalikda amalga oshirmoqda.

O‘zbekiston geografik jihatdan Yevropa va Osiyoni o‘zaro birlashtiruvchi hamda Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida turli tranzit yuklarni mamlakat hududidan o‘tkazish salohiyati bilan ajralib turadi. Dengizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyati mavjud bo‘lmagani sababli bizda yuklarning asosiy qismi temir yo‘l orqali tashiladi. Biroq bugungi kunda mazkur salohiyatdan foydalanish darajasi yetarli emas. Temir yo‘l transportining to‘liq quvvat bilan ishlamayotgani, ko‘rsatilayotgan xizmatlarning jahon standartiga mos kelmasligi imkoniyatlarimizni chegaralamoqda. Vaholanki, xalqaro ekspertlar xulosasiga ko‘ra, transport infratuzilmasini yaxshilash, moslashuvchan tariflar qo‘llash va yangi istiqbolli yo‘nalishlarni shakllantirish hisobiga O‘zbekistonda tranzit salohiyatini hozirgi 7 milliondan 16 million tonnaga yetkazish imkoniyati mavjud.

lashtirilayotgani bejiz emas. Boisi, u Xitoyni Yevropa va Yaqin Sharq mamlakatlari bilan bog‘laydigan eng qisqa yo‘nalishga aylanadi. Mavjud yo‘nalishlarga qaraganda, masofa 900 kilometr, yuklarni yetkazib berish muddati esa 7-8 kun qisqaradi. Loyiha istiqbollari 2020-yilda ishga tushgan Qashg‘ar — Irkistom — O‘sh — Andijon — Toshkent avtomobil yo‘lagi orqali namoyon bo‘lmoqda. Bu yo‘l Markaziy Osiyodan avtomobil transporti vositalarining Xitoyga tezroq yetib borishiga imkon beryapti.

Umuman, so‘nggi yillarda Markaziy Osiyo mintaqasida transport logistikasi sohasida multaloq yangi konstruktiv hamkorlik muhiti yaratildi. Bunda O‘zbekiston ilgari surayotgan tashabbuslar, sa‘y-harakatlar alohida o‘rin tutadi. Jumladan, 2021-yilda Islom taraqqiyot banki boshqaruvchilar kengashining poytaxtimizda o‘tkazilgan 46-yillik yig‘ilishida davlatimiz rahbari “G‘arbiy Afrikadan Sharqiy Osiyogacha yashil yo‘lak” savdo-iqtisodiy makonini shakllantirish tashabbusini ilgari surdi. Uning amalga oshirilishi o‘zaro savdo va sarmoyaviy aloqalar kengayishi, erkin savdoni rag‘batlantirish, transport va logistika infratuzilmalarini rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

Hali bu borada ko‘zlangan ko‘p loyihalar bor. Bunda temir yo‘l tizimi asosiy vositalardan biri bo‘ladi. Strategiyada shimoliy yo‘nalishda temir yo‘l orqali yuk tashish muddatini 40 foiz qisqartirish, yo‘lovchi va yuk tashish xizmatlari hajmini 3 barobar oshirish, Toshkent — Samarqand, Samarqand — Navoiy — Buxoro yo‘nalishlarida yangi temir yo‘llar qurish, tezyurur poyezdlarda yo‘lovchi tashishni 2,5 barobar ko‘paytirish kabi vazifalar ham bor. Bularga tezroq erishish maqsadida sohani zamonaviylashtirish, raqamlashtirish ishlari kechayapti. 2030-yilga borib, O‘zbekistonda elektrlashtirilgan temir yo‘llar ulushi hozirgi 38 foizdan 65 foizga yetkaziladi. Sekin-asta mamlakatimiz transport logistikasi tizimida bozor tamoyillariga o‘tilib, sohaga xususiy va xorijiy operatorlar jalb etilyapti. Jumladan, temir va havo yo‘llari transportida yo‘lovchi va yuk tashish xizmatlari tariflari shakllanishida bozor tamoyillariga o‘tish soha rivojiga xizmat qiladi.

Shartlarni erkinlashtirish borasida

Oxirgi yillarda fuqarolarimizning xorijga chiqishi, yurtimizga sayyohlar oqimi keskin oshgan. Xalqaro safarlarda esa yo‘lovchilarning aksariyati havo transportidan foydalanadi. Shu bois, tizimni zamon talablariga moslashtirish, yuqori darajada xizmat ko‘rsatishga talab ortib boryapti.

Strategiyada ham mamlakatimizda havo transportini rivojlantirish bilan bog‘liq ko‘plab vazifalarga e‘tibor qaratilgan. Samaradorligi past bo‘lgan hududiy aeroportlarni davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish va ishonchli boshqaruvga berish, xususiy aviakompaniyalar sonini 10 taga yetkazish, aviaqatnovlar sonini 4 barobar oshirish, barcha aeroportlarda strategik hamkorlar bilan “Ochiq osmon” rejimini joriy qilish, respublika aviaparkini 100 taga yetkazish kabilar shular jumlasidan.

Fuqaro aviatsiyasida “Ochiq osmon” rejimi xorijiy aviakompaniyalar uchun mamlakat aeroportlaridan foydalanish shartlarini erkinlashtirish va kirishni yangillashtirishni anglatadi. Xorijiy aviakompaniyalarning O‘zbekistonga kirib kelishi iqtisodiyotga sezilarli foyda keltiradi. Masalan, Samarqand aeroportiga qo‘ngan xorijiy aviakompaniya samolyoti uchish yo‘lagi uchun pul to‘laydi. Shuningdek, aeroportda qolgan har bir soati, yoqilg‘i olgani va boshqa xizmatlar uchun ham to‘lovlar mavjud. Samolyotdagi yo‘lovchilar esa aeroport terminali, avtotransportdan foydalanish, mehmonxonada yashash orqali moliyaviy oqimini oshiradi.

Umuman, yurtimizda milliy transport tizimi salohiyatini oshirish hamda global transport logistikasi tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish asosiy vazifalardan biriga aylangan. Bu iqtisodiy farovonlikning muhim qismlaridan biri va bu boradagi vazifalarni o‘z vaqtida bajarish O‘zbekistonning jahon maydonidagi o‘rini yanada mustahkamlashga, iqtisodiyotimiz rivojiga xizmat qiladi.

Ulug‘bek INOYATOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o‘rinbosari

Kuchli ijtimoiy himoya barqaror taraqqiyotga erishish va jamiyatda farovonlikni yuksaltirishning muhim omilidir. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida o‘z aksini topgan bu tamoyil inson qadri va manfaatlariga xizmat qilishi bilan ahamiyatli. Bularning barchasi yangi O‘zbekiston siyosatining bosh maqsadi, davlat va jamiyat rivojida asosiy dastak, bag‘rikeng, olijanob xalqimiz uchun oliy qadriyat darajasiga ko‘tarildi. Zotan, bugun hayotimizdagi yorqin o‘zgarishlar, ulug‘vor orzularimiz ham, aslida, inson manfaatlari yo‘lidagi tashabbuslarning o‘ziga xos in‘ikosi, desak aslo mulbog‘a bo‘lmaydi.



Bugun mamlakatimiz barcha jabhada jadal ildamlayotgani, turli sohadagi islohotlar samarasi bir maqsadga — inson va uning manfaatlariga qaratilgani global axborot maydonida birdek e‘tirof etilmog‘da. Aslida, davlatimiz rahbari ta‘biri bilan aytganda, jahon miqyosida ishonch inqirozi kuzatilayotgan, keng ko‘lamdagi keskinlik, geosiyosiy qarama-qarshiliklar ortgan, butun bashariyat taqdiriga daxldor masalalarda o‘zaro mulohat izdan chiqqan bir sharoitda bunga erishish oson bo‘lmayotgani ham rost. Shunga qaramay, yurtimizda har

tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, kasbga tayyorlash va ish o‘rinlarini ko‘paytirishga qaratilgan kompleks vazifalar ijrosiga kirishildi. Natijada birgina o‘tgan yilning o‘zida 1 million aholi kambag‘allikdan chiqarildi.

Bundan tashqari, har yili oilaviy tadbirkorlikka 13 trillion so‘m kredit va 1 trillion 500 milliard so‘m miqdorida subsidiya ajratilayotgan. “Ijtimoiy himoya reyestri” orqali 2 million 300 ming muhtoj oila, xotin-qizlar, yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan fuqarolarga yordam berilayotgani yana bir diqqatga molik jihatdir.



bir inson uchun, millati, tili, dini va ijtimoiy mavqeidan qat‘i nazar, munosib va farovon hayotni yaratish yo‘lida erishilayotgan yutuqlar soniyu salmog‘idan ko‘ngil ko‘tariladi.

Beshta ustuvor yo‘nalishda 100 ta aniq maqsadni qamrab olgan strategik hujjat inson huquqlarini kafolatlash, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma‘naviy barkamol avlodni tarbiyalash, kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlash yo‘lida dasturlamal bo‘lgusidir.

Jumladan, kambag‘allikka tushish xavfi mavjud 4,5 million aholining daromadini oshirish, ijtimoiy sheriklik asosida 500 ming malakali mutaxassisi tayyorlash, mehnatga layoqatli fuqarolarni, ayniqsa, yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni doimiy band qilish orqali ishsizlik darajasini keskin kamaytirish, 2 million kishini kasb-hunar, xorijiy tillar va tadbirkorlik ko‘nikmalari bo‘yicha o‘qitish hamda bu sohada xususiy sektor ulushini 30 foizga yetkazish, kasbga o‘qitish markazlarining 1,6 ming o‘qituvchisini xalqaro standartlar asosida malakasini oshirish belgilanmoqda.

Yaxshi eslaymiz, bir zamonlar aholining muayyan qatlami o‘rtasida kambag‘allik mavjud bo‘lsa-da, bu xususda lom-mim deiyishga haddimiz sig‘mas edi. Tan olinmagan va qaysidir ma‘noda “yopiq‘liq qozon yopiq‘ligicha qolishi kerak”, degan tutum tufayli kambag‘allik muammosi aloqoqibat ijtimoiy hayotimizda qator illatlarni keltirib chiqargani sir emas. So‘nggi yillarda esa jamiyatimizda kambag‘allik borligi nafaqat tan olindi, balki uni qisqartirish bo‘yicha alohida tizim joriy qilindi. Yurtimizdagi barcha tumanlar sharoitiga ko‘ra 5 toifaga ajratilib, tabaqalashgan yangilliklar berildi. Aholida

Hech shubha yo‘qki, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi bu boradagi ishlar natijadorligini yangi pog‘onaga olib chiqadi. Mazkur hujjatda har bir insonga salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoit yaratish yo‘lida ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimini ham tubdan takomillashtirish mexanizmi aniq-tiniq keltirilgan.

Bu yo‘nalishdagi chora-tadbirlar negizida jamiyatda tengsizlik va kambag‘allik xavfini yumshatish, buning uchun, birinchi navbatda, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam bilan ishlashda eskirgan va o‘zini oqlamagan uslublardan voz kechish maqsadi yaqqol ko‘rinadi.

Deylik, ijtimoiy xizmatlarni majmuaviy amalga oshirish uchun barcha tuman va shaharlarda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yilishi, nogironligi bo‘lgan shaxslarni sifatli va zamonaviy protez-ortopediya buyumlari bilan ta‘minlash darajasini yuz foizga yetkazish, reabilitatsiya xizmatlari bilan to‘liq qamrab olish, ushbu toifadagi insonlarni munosib ishga joylashtirish orqali bandligini ikki barobar oshirish, xullas, o‘z haq-huquqlaridan foydalanishda teng imkoniyatlar beradigan, qulay va maqbul muhiti yaratish inkiyuziv jamiyatni barpo etish jarayonini jadallashtiradi.

Shu bilan birga, har yili respublikamizning barcha hududidan nogironligi bo‘lgan mingdan ziyod shaxsning “To‘siqsiz turizm” dasturi doirasida qadimiy kentlari-mizdan sanalmish Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlariga sayohatlari tashkil etilishi ayni muddao, albatta.

Ahamiyatlisi, strategiya asosida ijtimoiy himoyaga muhtoj yana bir qatlam vakillari — bolalar hamda ayollar huquq-manfaatlarini kafolatlash tizimida ham yangicha, samarador yondashuvlar tatbiq etiladi.

To‘g‘ri, bolalar va ayollarni oilada hamda jamiyatda turli zo‘ravonliklardan, ruhiy bosim va tazyiqlardan himoyalash bo‘yicha yillar davomida muayyan ishlar qilib kelinmoqda. Bu yo‘nalishda o‘ziga xos tajriba ham shakllangan. Biroq islohotlarga, ko‘rilayotgan choralariga qaramay, jamiyatimizda voyaga yetmaganlar va xotin-qizlar duch kelayotgan salbiy holatlar hamon butkul barham topgani yo‘q. Ijtimoiy tarmoqlarda, OAVda bolalarning o‘z yaqinlari yoki begona shaxslar tomonidan zo‘ravonlikka uchrayotgani yoxud oilaviy tazyiqlar bois, ayollarning o‘z joniga qasd qilishi bilan bog‘liq achinarli voqealar yoritilayotgani buning dalili. Oiladagi zo‘ravonlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning asosiy jabrdiydalari ko‘pincha bolalar bo‘lib qolayotgani yanada taassufli. Mazkur holatlarda nafaqat ularning huquqlari buzilayotir, balki murg‘ak qalblarning ruhiy holati, ta‘lim-tarbiyasi izdan chiqayotir.

Bunday o‘tkir muammo yechimi sifatida, birinchi navbatda, jamiyatda bolalarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka toqatsizlik madaniyati shakllantirilishi, ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni parvarishlash bo‘yicha ilg‘or shakllarning joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, Taraqqiyot strategiyasida gender tenglikni ta‘minlash siyosatini izchil davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini kuchaytirish orqali boshqaruv lavozimlarida ularning ulushini 30 foizga oshirish, mahallalarda “Ayollar haftari” bilan ishlashda muhtoj oila, xotin-qizlar va buning ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish maqsadi ilgari surilgani quvonarli.

Oilada va jamiyatda bolalar, xotin-qizlar manfaatlarini ta‘minlash barobarida ibratli umr yo‘li, katta hayotiy tajribasi bilan yosh avlodga o‘mak bo‘lib kelayotgan yoshi ulug‘ insonlarni qadrlash, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bugun davlat siyosati darajasiga chiqdi.

O‘tgan davrda keksalarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimini yaxshilash borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu yo‘nalishda o‘ndan ortiq qonun hujjatlari qabul qilindi, nuroniylarning ijtimoiy faolligini rag‘batlantirish maqsadida “Faxriy murabbiy” ordeni va “Mehnat faxriysi” ko‘krak nishoni ta‘sis etildi.

Keksalar uchun barcha tuman va shaharlarda “Nuroniylar maskani” majmualari barpo etildi. Ishlovchi pensionerlarga pensiyalarni to‘liq miqdorda to‘lash yo‘lga qo‘yildi, viloyatlar, tuman va shaharlarda nuroniylar jamoatchilik kengashlari, mahallalarda “Keksalar maslahati” guruhlari tashkil qilindi. “Keksalar haftaligi” va “Keksalar uchun turizm oyligi”ni o‘tkazish an‘ana tusini oldi. “Bir nuroniy o‘n yoshga mas‘ul” tamoyili asosida mahallalarda ma‘naviy-tarbiyaviy ishlar jonlandi.

Mamlakatimizning 2030-yilga qadar belgilangan strategiyasida mana shu xayrli ishlar bardavomligini ta‘minlash bilan birga, nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari doirasidagi chora-tadbirlar qamrovini kamida 30 foizgacha oshirish nazarda tutilgan. Bundan tashqari, har yili bir milliondan ortiq otaxon va onaxonlarning o‘lkamizning tarixiy shaharlari, muqaddas qadamlari va so‘lim go‘shalariga sayohati uyushtirildi.

Keksalarni ardoqlash, ularning ko‘ngliga qarashdek qon-qonimizga singib ketgan fazilatlariga hamohanglik kasb etgan bu tashabbuslar yoshi ulug‘ insonlarda mamnunlik, rozilik hislari bilan birga, ularning ijtimoiy faolligini oshirish shubhasiz. Keksasi bor xonadonda fayzu baraka, uyushqoqlik hukm surgani kabi nuroniylari ulug‘langan jamiyatda millatning ma‘naviy barkamolligi va ezgu an‘analarga aslo putur yetmaydi.

Inson qalbiga yo‘l e‘tibordan, mehr va muruvvatdan boshlanadi. Inson qalбини xushnud etish Ka‘bani obod etish bilan tengdir, deydi ulug‘larimiz. Shu ma‘noda, yurtimizda insonni qadrlash, “Avval — inson, keyin — davlat va jamiyat” tamoyili asosida keng qamrovli islohotlar o‘tkazilishi qalblarimizda eziglikning bo‘y ko‘rsatib, yurt va xalq taqdiriga daxldorlik tuyg‘usi kuchayishiga turki beradi. Davlatning o‘z oldiga qo‘ygan strategik maqsadlariga erishishida insonlardagi — u kim va qaysi kasb egasi bo‘lmasin — umummilliy taraqqiyotga daxldorlik tuyg‘usi hal qiluvchi rol o‘ynashi tarixdan ma‘lum. Bino-barin, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan har tomonlama uy‘un xalq strategiyasidir.



qiyofasi shakllana boshladi. Natijalar ham uzoq kuttirmadi. O‘zbekiston mahsulotlari jahon bozoriga chiqib, 2022-yilda 32 ta mamlakatga kirib bordi. Eksport ham, savdo aloqalari ham, mahsulot yetkazib berish hajmi ham shunga mos ravishda bir necha barobar ortgan. Bu tadbirkorlik, milliy mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi o‘sib borayotganidan dalolat.

Endilikda dunyoning eng yirik bozorlari, biz uchun o‘lis bo‘lgan diyorlarga qisqa, arzon va qulay yo‘llar orqali yetib borish, logistika xizmatlari sifati va ko‘lamini yanada kengaytirish bo‘yicha ishlar davom etmoqda. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham yurtimizning transport logistikasi tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimi salohiyatini oshirish vazifasi belgilangan. Yurtimiz hududi orqali tranzit yuklar tashish hajmini 16 million tonnaga yetkazish maqsadi ham buning bir qismi.

Muhim tashuv vositasi

Transport vositalari ikki asosiy yo‘nalish — aholi tashish va yuk tashishni o‘z ichiga



TARADDUD

aholi talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, xizmat turlarini ko'paytirdi.

Yillar mobaynida fuqarolarning shirkatlarga ishonchi kamayib borgan bo'lsa, professional boshqaruvchi tashkilotlar faoliyatiga munosabat kun sayin yaxshilanib bormoqda. Tashkil etilganiga qisqa muddat bo'lgan bo'lsa-da, servis boshqaruv kompaniyalari hududdagi fuqarolarga sifati kommunal xizmat ko'rsatish maqsadida kecha-kunduz faoliyat ko'rsatuvchi ishonch telefoni hamda avariya-dispatcherlik xizmatlarini tashkil etib, 40 turdagi kommunal xizmat ko'rsatmoqda.



cha ovoragarchilik va tushunmovchiliklarning oldini olyapti. Mijoz to'lov mablag'lari qaysi maqsadlarga yo'naltirilayotganini elektron tarzda bevosita kuzatib boradi.

sulotlar iqtisodiy tejamkor, uzoq muddat ishlash xususiyatlari bilan ajralib turadi. Yangi qurilma o'tgan qish mavsumida o'z samarasini ko'rsatdi. Yoqilayotgan ko'mir sarfi uch hissaga kamaydi, isitish darajasi 2,5 barobar oshdi. Bu yiliga 20 milliard so'mdan ortiq budjet mablag'larini iqtisod qilish imkoniyatini beradi. Yana bir jihati, ko'mirmi chiqindiga chiqarmaydi, havoga zararli tashlamalar ko'tarilishini keskin kamaytiradi.

Yozoyovon tumani markaziy shifoxonasiga o'matilgan eski rusumdagi isitish qozonlari kuniga 1600 kilogramm ko'mir yoqilg'isi sarflagan. Tejamkor qozonlar o'matilgach, kunlik ko'mir sarfi uch hissaga kamayib, kuniga 1000 kilogrammdan ortiq ko'mir tejashiga erishilayapti. Bu miqdorni kuz-qish mavsumiga bog'lab hisob-kitob qilinsa, umumiy 121 tonna ko'mir yoki 50 million so'mdan ortiq mablag'ni tejab qolish imkoniyati yaratildi.

Mazkur amaliy tajribani viloyatdagi barcha isitish tizimlarida joriy etish, zamonaviy energotejamkor, issiqlik me'yori yuqori bo'lgan avtomatlashtirilgan qozonlarda ishlash tizimiga o'tkazish bilan bog'liq ishlar ommalashtirilmoqda.

"Farg'ona issiqlik ta'mir" mas'uliyati cheklangan jamiyatida "Yormozor" tamg'asi ostida zamonaviy isitish qozonlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Bu yerda 20 kvadrat metrdan 10 ming kvadratgacha bo'lgan uy-joy va boshqa ijtimoiy soha obyektlarini isitishga ixtisoslashgan qozonlar ishlab chiqarilmoqda. Yangi qozonlar mahalliy ko'mirda ishlashi, issiqlik tizimi tabiiy usulda aylanishi xususiyati bilan ajralib turadi. Bu elektr energiyasi sarf qilmagan holda bir me'yorda issiqlik yetkazib berish imkoniyatiga ega. Yangi qozonlar bir soatda 2 kilogramm mahalliy ko'mir sarflaydi. Bu boshqa isitish qozonlarining iste'moliga nisbatan besh hissaga kam.

— Mahsulotlarimiz nafaqat tejamkorligi, balki boshqa isitish qozonlariga nisbatan arzonligi bilan ham ajralib turadi, — deydi "Farg'ona issiqlik ta'mir" MCHJ rahbari Ulug'bek Po'latov. — Shu maqsadda sohaga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, yangi tajriba, tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, kam xomashyo sarflab, me'yori talablariga mos bo'lgan issiqlik ishlab chiqaruvchi tejamkor qozonlar tayyorlashga e'tibor beryapmiz. Dastlabki hisob-kitobimizga ko'ra, joriy yil yakuniga qadar aholi va boshqa ijtimoiy soha obyektlariga 10 mingdan ortiq ana shunday tejamkor isitish qozonlari yetkazib beramiz.

Sirasini aytganda, kuz-qish mavsumida aholi va ijtimoiy soha obyektlarini kerakli issiqlik bilan ta'minlash, mahalliy va import ko'mirga bo'lgan talabni qondirish borasida zaruriy chora-tadbirlar amalga oshirilayapti. Chunki uylar issiq bo'lsa, ko'ngil xetirjam bo'ladi.



QISH MAVSUMIGA FARG'ONADA QANDAY TAYYORGARLIK KO'RILMOQDA?

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Qish g'amini yozda ko'r", "Yoz yopinchig'ingni qo'yma, qishda o'zing bilasan". O'tgan kuz-qish mavsumida kuzatilgan anomal sovuq bu boradagi ishlarga erta hozirlik ko'rish, muammolarni o'z vaqtida bartaraf etish zarurligini ko'rsatdi. Farg'ona viloyatida kuz-qish mavsumiga qanday hozirlik ko'rilyapti? Mavjud muammolarga qay darajada yechim topilmoqda?

Ko'p kvartirali uylarda istiqomat qiluvchi fuqarolar hamda ijtimoiy soha obyektlari uchun qulay shart-sharoit yaratishda, avvalo, issiqlik va issiq suv ta'minoti uzluksiz bo'lishi, uy tomlari, kanalizatsiya va yerto'la qismlarini ta'mirlash muhim hisoblanadi. Biroq hamma joyda ham bu infratuzilmalar samarali ishlamayapti, deb bo'lmaydi. Chunki markazlashtirilgan issiqlik ta'minoti tizimlari 1950-1970-yillarda ochiq suv taqsimoti hamda bino va inshootlarning isitish tizimlarini issiqlik tarmoqlariga ulash sxemasida asosida tashkil qilingani o'ziga xos muammolarga sabab bo'lmoqda.

Markazlashtirilgan issiqlik ta'minotidan uzilgan ayrim ko'p xonadonli uylar ko'pincha sertifikatga ega bo'lmagan, yong'in xavfsizligi kafolatlanmagan gaz va elektr uskunalari bilan isitilmoqda. Bu esa ba'zi bir ehtiyotsizliklar tufayli ko'ngilsiz fojialar kelib chiqishiga sabab bo'lib qolayotganidan ham ko'z yumib bo'lmaydi.

— Ko'p qavatli uylar va issiqlik ta'minoti tizimi, ijtimoiy soha obyektlarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash bo'yicha oldimizda muhim vazifalar turibdi, — deydi Farg'ona viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqar-masi sho'ba mudiri Sardorxon Sodiqxonov. — Avvalo, iste'molchilarga issiqlik energiyasi yetkazib berish sifati oshirish hamda uning uzluksizligini ta'minlash, issiqlik ta'minoti tizimiga zamonaviy, tejamkor va kam energiya sarflaydigan texnologiyalarni joriy etish, yangilash hamda modernizatsiya qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, Abdulla Qodiriy mavzesidagi ko'p qavatli uy-joylarni markazlashgan issiqlik bilan ta'minlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanilmoq-

da. Bu texnologiyaning afzalligi shundaki, har qanday sovuqda ham kam energiya va yoqilg'i sarflagan holda, uylar va ijtimoiy soha obyektlariga yetarli darajada bosim va issiqlik uzatiladi. Ushbu maqsadlar uchun qariyb 140 milliard so'm mablag' yo'naltirilib, mavzeda joylashgan 203 ta ko'p qavatli uy hamda 29 ta ijtimoiy soha obyektlarini markazlashgan issiq suv va issiqlik bilan ta'minlash rejalashtirilgan. Dastur doirasida 73,4 kilometr magistral issiqlik tarmoqlari yangilandi. Zamonaviy individual issiqlik punktlarini o'rnatish ishlari jadal olib borilmoqda. O'tkazilgan tahlillar natijasiga ko'ra, yangi loyiha hududdagi ko'p qavatli uylarda bir issiqlik davrida 21 million metr kub tabiiy gaz, 9,5 million kilovatt elektr energiyasini iqtisod qilish orqali qariyb 10,8 milliard so'mlik mablag'ni tejab qolish, kommunal to'lovlar tannarxini arzonlashtirish imkoniyatini beradi.

Viloyatda aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani kuz-qish mavsumiga tayyorlash ishlari muvofiqlashtirish va uni betalafot o'tkazish bo'yicha shtab tashkil etilgan. Ishchi guruhlar tomonidan ko'p qavatli uylar, ijtimoiy soha obyektlari hamda issiqlik, ichimlik suv, elektr energiyasi, tabiiy gaz ta'minoti tizimlarini mavsumga tayyorlash, aholiga ko'mir, suyuqlirilgan gaz yetkazib berish, oziq-ovqat ta'minoti zaxiralari yaratish kabi masalalar bilan bog'liq holatlar o'rganilib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rilmoqda.

Mavsumga tayyorgarlik doirasida jami 3,841 million so'mlik mablag' yo'naltirilib, 6 ta qozonxona, 13 ta qozon va 3,6 kilometr issiqlik tarmoqlarini mukammal va joriy ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Respublika bud-

jeti hisobidan ajratilgan 14,2 milliard so'mlik mablag' evaziga 312 ta ko'p kvartirali uylar ta'mirlanmoqda.

Bugunga qadar 67 ta ko'p kvartirali uyning tom qismi, 445 ta kirish yo'lga, 204 ta elektr taqsimlovchi vosita, 109 ta ko'p kvartirali uyning yerto'la qismidagi muhandislik tarmoqlari



va kommunikatsiyalari, 105 ta uy ichidagi muhandislik tarmoqlari, 185 ta binoning fasad qismini ta'mirlash ishlari amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, yil boshidan buyon boshqaruv servis kompaniyalari hisobidan 3 milliard 894 million so'mlik mablag' yo'naltirilishi hisobiga 282 ta ko'p kvartirali uy ta'mirlandi.

Xizmatlar ko'lami oshdi, sifati yaxshilandi

Ko'p kvartirali uy-joy fondini kuz-qish mavsumiga barqaror tayyorlash, ta'mirlash ishlari sifati bajarishda boshqaruv servis kompaniyalari faoliyatining o'rni ham ortib bormoqda. Kommunalar xizmatlari bozoriga professional boshqaruvchi kompaniyalar kirib kelishi

ta'mirlandi, 1200 dan ortiq buyurtmalar asosida xizmat ko'rsatdik. Muhimi, aholining bizga bo'lgan ishonchi ortib bormoqda. Boshqaruv servis kompaniyasi tashkil etilganida aholi debitorlik qarzi 1 milliard 51 million so'mdan ortiq bo'lgan. Bugunga kelib, qarzdorlik miqdori oltmish foizga qisqardi. Ayni kunda 3 ta kommunal xizmat ko'rsatish brigadasi tashkil qilganimiz. Hududlar tozaligini ta'minlash maqsadida har jihatdan qulay va arzon, shovqinsiz ishlovchi elektr motorollerlar xizmatidan foydalan-yapmiz. Ular hududlarni obodonlashtirish, sanitariya-gigiyena talablari asosida ozoda saqlash ishlari jalb etilgan. Ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun billing to'lov tizimi yo'lga qo'yilgani ham ish sifati va samaradorligini oshirmoqda. Bu to'lovlar bilan bog'liq ortiq-



ATTANGI!



Mazkur maqolalardagi ma'lumotlarga ishonadigan bo'lsak, Aydarko'lining Amasoy tumani hududidagi qirg'oqlarida 103 gektarda 60 mingdan ortiq yapon saforasi, katalpa, paviyoniya, qarag'ay, chinor kabi manzarali daraxt ko'chatlari ekilgan. Buning uchun tizim tasarrufidagi korxonalardan 1,5 mingdan ortiq xodim jalb etilgan. Lekin qancha mablag' ajratilgani haqida biror manbadan rasmiy ma'lumot topolmadik.

O'tgan yili 12-may kuni mahalliy saytlardan birida bu bog' haqida reklama huquqi asosida e'lon qilingan (tashabbuskorlar reklamaga ham katta pul sarflagan chog'i) maqoladan iqtibos keltiramiz:

"Aydar-Amasoy ko'llar tizimi qirg'og'ida joylashgan sun'iy o'rmon parki dam olish kunlarida mahalliy aholi tabiat qo'ynida hordiq oladigan jozibali turistik maskan bo'ladi. Keyinchalik park hududi obodonlashtirilgan plyaj, sport maydonchalari va boshqa obyektlar bilan to'ldiriladi, bu esa uni, shubhasiz, faol dam olish uchun mashhur maskanga aylantirib, mintaqadagi ekologik vaziyatni yaxshilash imkonini beradi. Bundan tashqari, davlat-xususiy sheriklik doirasida kompleksning dam olish infratuzilmasini yaxshilash uchun qo'shimcha sharoitlar yaratiladi".

Kesatsiqsiz, mubolag'asiz aytish kerakki, "O'zavtosanoat"ning ushbu ezuq maqsadi va

sa'y-harakati, darhaqiqat, ajoyib edi. Negaki, Amasoyga qilgan safarimiz davomida bog' barpo etish uchun bejiz Aydarko'l qirg'oqlari tanlanmaganiga amin bo'ldik. Bu manzilga tashrif buyurganlar yaxshi biladi — doimo to'liqlari mavjlanib turadigan ko'lining narigi qirg'og'i ufqqa tutashgan. Kishiga go'yo dengiz qulay emilgan. Lekin qancha mablag' ajratilgani haqida biror manbadan rasmiy ma'lumot topolmadik.

Biroq shuncha mehnat, sarflangan mablag' bugun havoga uchdi. Siz suratlarda ko'rib turgan ko'chatlar bugun qurib, bog' yana yaydoq sahroga aylangan. Qurigan ko'chatlarni ko'rib, hafsalangiz pir bo'ladi.

— Bu yerda boshlangan ishlarni ko'rib, boshida rosa quvongandim, — deydi sayoyhlariga xizmat ko'rsatuvchi "Abubakir polvon" MCHJ vakili Erkin Sattorov. — 103 gektar hudud sim to'ri bilan o'rab chiqildi. Bog'i chorvadan himoyalash maqsadida 24 soatli kuzatuv joriy qilindi. Aydarko'ldan suv tortib kelishga kirishildi. Mutaxassislarning gap-so'zlaridan bildikki, ko'l suvi filtrlanib, ko'chat sug'orishga yo'naltiriladi. Buning uchun ikkita hovuz qazildi. Ko'ldan quvur tortildi. Ko'chat

BOG' QURIB QOLDI
SARFLANGAN MABLAG' VA YO'QOTILGAN VAQT UCHUN KIM JAVOB BERADI?

Yodingizda bo'lsa, bundan bir yarim yilcha oldin "O'zavtosanoat" AJ butun mamlakatda boshlangan aksiya — "Yashil makon" umummilliy loyihasiga o'z hissasini qo'shishini e'lon qilgandi. O'sha paytda "O'zavtosanoat"ning ushbu tashabbusini barcha telekanallar, saytlar va blogerlar reklama huquqi asosida keng yoritgandi. Mana, bo'larkan-ku, deya og'izlaridan bol tomib maqtashgandi.

oralariga quvvur tashlandi. Negadir suv tozalash inshooti qurilishi kutilmaganda taqat to'xtab qoldi. Dastlab 2 ta mashina 20 kilometrdan suv tashib, daraxtlarni sug'orib turdi. Shuncha mehnat uvol bo'lmasin, deb men ham sug'orish ishlari ko'maklashdim. Lekin ko'p o'tmay bu mashinalar ham kelmay qo'ydi. O'ylik maosh to'lanmagani bois, qorovullar ham ketdi. Mana, ko'rib turganingizdek, qarovsizlik sabab bahorda yashnab turgan bog' qurib qoldi.

"Yashil makon" umummilliy loyihasiga ko'ra, respublikamiz bo'ylab yiliga 200 million tup daraxt va buta ko'chati ekish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni amaldagi 8 foizdan 30 foizga yetkazish reja qilingan. Haqiqatan, so'nggi ikki yilda bu borada katta ishlar amalga oshirildi. Yo'l bo'yilarida, shaharlar atrofida "yashil belbog'"lar yaratildi. Ko'p qavatli uylar atrofidan tortib, dala chetlarigacha bo'lgan qarovsiz joy borki, daraxt ko'chatlari o'tqazildi. Statistik ma'lumotlarning tasdiqlashicha, so'nggi ikki yilda har bir viloyatda 15-16 million tupdan ko'chat ekildi. Bu bo'yicha e'lon qilingan zarbdor 40 kunlikda barcha tashkilotlar, 7 yoshdan 70 yoshgacha yoshu qari ishtirok etdi, ezuq tashabbusni qo'llab-quvvatladi.

Prezidentimiz mazkur loyiha ijrosi bo'yicha o'tkazgan har bir videoselektor yig'ilishida mutasaddilarga, mahalliy hokimliklarga aniq



chora-tadbirlar ko'rish bo'yicha topshiriqlar bergandi.

Xususan, daraxtlarni ekish va parvarishlash sohasidagi boshqaruv tizimini takomillashtirish, ilmiy yondashuvlar asosida hududlarning tuproq-iqlim va boshqa xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqot va tahlillar qilish hamda hududlar kesimida respublika xaritasini ishlab chiqish, xorijdan keltirilgan manzarali daraxtlarni mahalliyalashtirish, daraxtlarni sug'orish tizimini qayta ko'rib chiqish, har bir daraxtni parvarishlash uchun mas'ul shaxslarni belgilash va bu borada rag'batlantirish mexanizmlarini keng joriy etish kabi vazifalar shular jumlasidandir.

Jizzax viloyati Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi bergan ma'lumotlarga e'tibor qaratamiz: "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 2023-yilning bahor mavsumida viloyat hududida 10 million 57 ming tup manzarali, mevali

daraxt va buta ko'chati ekilgan. "Yashil makon" elektron platformasiga kiritilgan 10 million 57 ming tup daraxt va buta ko'chati parvarishlash har bir korxona, tashkilot va muassasa rahbarlari va mas'ul shaxslariga dalolatnoma asosida birliktirib berilgan..."

Ko'rib turganingizdek, boshqarma juda chiroyli statistik ma'lumot taqdim etgan. Raqamlarda aks etayotgan ishlar ko'laminini tasavvurga sig'dirish mushkul.

Afsuski, xizmat safarimiz davomida bu loyiha doirasida joylarda qilingan ishlarning barchasini ko'rishga imkon bo'lmadi. Jizzax shahri markazidan Aydarko'lgacha bo'lgan masofa qariyb 100 kilometr. Katta yo'l bo'yida ekilgan ko'chatlarning holatiga qiziqib, kuzatib ketdik. Jumladan, Do'stlik tumani prokuraturasi, Davlat xizmatlari markazi va tuman-dagi ixtisoslashtirilgan maktab ro'parasiga ekilgan ko'chatlar suvsizlikdan qurib-qaqshab yotibdi. Yana deng, bu tuman markazidagi

holat. Yoki Do'stlik tumanidan Amasoy tumani-ga keta-ketguncha 10 kilometrlab yo'l bo'yilariga ekilgan ko'chatlar nobud bo'lgan. Boshqarmadagilar bu hududlar uchun mas'ul mutasaddilarga eng kam ish haqining o'n barobarigacha jarima qo'llangani haqida aytdi. Lekin jarima qo'llash yoxud jazolash bilan yo'llarimiz chetlari, umuman, biz yashayotgan manzillar yashillashib, ko'rakmlashib qolmasligi aniq. Buning uchun qancha mablag', qancha mehnat yo'qqa chiqqani xususida-ku, gapirmasa ham bo'ladi.

Shu o'rinda xorij tajribasi haqida ikki og'iz gapirib o'tsak. Yevropa shaharlarida katta yo'llar bo'yini qo'ya turing, ko'p qavatli binolar atrofi ham yashillikka, gulu bo'stonga aylantirilgani guvohi bo'lasiz. Har birida qishin-yozin turfa gullaru bir-birini takrorlamaydigan manzaralarni ko'rib, ko'zingiz quvnaydi. Bir safar tajrimondan so'raganimda, bu ish bilan landshaft dizayn yaratuvchi kompaniyalar shug'ullanishini, ular yuzingiz atrofiyuzi tashqarisini siz tanlagan ko'rinishda yashillikka burkab berishini aytgan edi.

Demochimizki, ko'p yillik achchiq tajribamizdan ma'lumki, hashar yo'li bilan amalga oshirilgan ish, xoh u ixtiyoriy, xoh majburiy bo'lsin yoki maqsad qanchalik ezuq bo'lmasin, alaloqibat yuqoridagidek holatga olib kelaveradi. Hamma mas'ul etib belgilangan ish oxir-oqibat sansolarikka sabab bo'laveradi.

Prezidentimizning 2021-yil 30-dekabrda "Respublikada ko'kalzorlashtirish ishlari-jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida aytilganidek, sohadagi boshqaruv tizimini takomillashtirish, jazlovchi va rag'batlantiruvchi mexanizmlarni jadal tatbiq etish lozim. Qolaversa, tizimga xususiy tadbirkorlarni jalb qilish, manfaatdorlikni oshirish kerak. Buning uchun byudjetdan ko'p pul ketadi, deyishingiz mumkin. Lekin hozir ham chakana mablag' havoga uchayotgani yo'q. Har qalay, dunyo tajribasi shunday. Biz ham muvaffaqiyatsizliklarimizdan saboq olishimiz va oqilona yechimlar haqida o'ylashimiz kerak bo'lgan vaqt allaqachon kelgan.

Yunus BO'RONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI

ISHTIROKCHILARNING NIYATI SHU:
BIRDAMLIK, HAMJIHATLIK VA DO'STLIK

Osiyoda hamkorlik va ishonch choralarini bo'yicha kengash Yoshlar kengashining Samarqand shahrida o'tkazilgan VI yig'ilishi yakuniga yetdi.

Yirik anjuman doirasida turkum tadbirlar tashkil etildi. Jumladan, "Avlodlar muloqoti"ning birinchi uchrashuvi, Yosh liderlar forumi, O'zbekiston — Qozog'iston yoshlari II kongressi, O'zbekiston — Rossiya yoshlar forumi va O'zbekiston — Ozarbayjon yoshlari I forumi qizg'in muhokama va fikrlar almashinuvi, birdamlik va hamjihatlikni namoyon etuvchi tashabbuslar maydoni vazifasini o'tadi.

Yorqin taassurotlarga boy o'tgan tadbirlar ishtirokchilar o'rtasidagi do'stlik va birdamlik tuyg'ularini mustahkamladi, ertangi istiqbolga xizmat qiladigan ezgu g'oya va tashabbuslar-

ning hayotga tatbiq etilishiga puxta zamin hozirladi.

Muxbirimiz forum ishtirokchilari-ning his-hayajoni va taassurotlari bilan qiziqdi.

Yordam berish, yaxshilik qilish hissi har birimizning qonimizda bor. Shu jihadni bizga qo'shni va do'st davlatlar yoshlarida ham ko'rdik. Bu, albatta, quvonarli. Sheriklar bilan volontyorlik yo'nalishida ham hamkorlik qilyapmiz. Bu yo'nalishda rus hamkasblarimizning tajribasi katta. Biz kimo'zarga emas, balki birlashib, insonlar taqdiriga befarq bo'lmagan, yordamga tayyorlarni birlashtirish, ularni bir oila a'zolari kabi yaxshilikka yo'naltirishga bel bog'ladi. Bu forum doirasida imzolangan do'stlik memorandumini ana shu ezgu maqsad ro'yobida yordam beradi.

2024-yil MDH davlatlarida "Volontyorlar yili" deb e'lon qilinishi kutilyapti. Bu, albatta, MDH mamlakatlari, jumladan, O'zbekistondagi ezigulikka va yaxshilikka befarq bo'lmagan barchani birlashtirib, safimizni yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Faoliyatimiz ekologiya, ta'lim-tarbiya va boshqa turli ilmiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Volontyorlik keng qamrovli ish. Bu dunyoda qancha ixtisoslik bo'lsa, barchasida volontyorlar bo'lishi maqsadga muvofiq.



Shirin OBIDOVA,
O'zbekiston volontyorlar
assotsiatsiyasi direktori:

— O'zbekiston — Rossiya yoshlar forumi kutilganidan ko'ra samarali o'tdi. Forumda hamkorlikdagi loyihalarimiz bilan birga kelgusi yilgi rejalar xususida ham fikr almashdik.

Asqar SHAYKIDENOV,
Qirg'iziston Madaniyat,
axborot, sport va yoshlar
siyosati vazirligi huzuridagi
yoshlar siyosati boshqarmasi
boshlig'i:



“

Forumda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish usullarini muhokama qildik. Mamlakatlarning umumiy barqarorligiga yo'naltirilayotgan bu sa'y-harakatlar besamar ketmaydi. Zero, xalqlarimizni asrlar davomida yoshlar ta'lim-tarbiyasi yo'lidagi harakatlar birlashtirgan. Shu bois, yoshlarning yet g'oyalarga chalg'imasligi biz uchun juda muhim.



Dilnozaxon KATTAXONOVA,
Yoshlar ishlari agentligi
direktori o'rinbosari:

— Forumda, birinchi navbatda, Osiyo mamlakatlari yoshlari o'rtasida ishonch va do'stlik muhitini yaratish ko'zda tutilgan edi. Chunki ishonch bor joyda hamkorlik, hamkorlik bor joyda rivojlanish, natija bo'ladi. Ayniqsa, yoshlar diplomatiyasi xalq diplomatiyasining muhim qismidir. Bu uzoqni ko'zlagan siyosat mahsulati. O'zaro ishonch va hamkorlik Osiyo mintaqasidagi do'stlik, hamjihatlik, tinchlik-xotirjamlik garovi. Osiyo mamlakatlaridan yoshlar yetakchilarining O'zbekistonda bir maydonda birlashishi katta voqea.

Shu paytgacha OHICHK Yoshlar kengashining beshta yig'ilishi o'tkazilgan. Prezidentimiz bundan roppa-rosa bir yil oldin oltinchi yig'ilishni aynan O'zbekistonda o'tkazish taklifini bildirdi. Eng muhimi, Yoshlar kengashi yig'ilishini birinchi marta avlodlar muloqoti formatida o'tkazish taklif qilindi. Avlodlar o'rtasidagi uzluksiz bog'liqlik, kichik

avlodning katta avlodga hurmatda bo'lishi, ustoz-shogird sifatida kattalarning yoshlar ta'lim-tarbiyasida ishtirok etishi G'arb mamlakatlarida uchramaydigan, Osiyo mintaqasiga xos bo'lgan an'anadir. Shuning uchun ham forum doirasida o'tkazilgan loyihalaridan biri — "Avlodlar muloqoti"ning ahamiyati katta.

Muloqotlarda Osiyo mamlakatlarida 2023-yilda yoshlar siyosati yo'nalishida bajarilgan ishlar tahlil qilindi. Shu bilan birga, 2024-yilda yoshlarning ta'lim, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilishga doir kreativ g'oya va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasida hamkorlik istiqbollari muhokama markazida bo'ldi. Yoshlar o'rtasida terrorizm, radikalashuvning oldini olishga qaratilgan ta'sirchan choralar ko'rish bo'yicha ilg'or taklif va tashabbuslar bildirildi. Bu bo'yicha Osiyo mamlakatlari eng samarali loyihalari, qo'llagan chora-tadbirlari muhokama qilindi. Ularni butun mintaqada qo'llash, xususan, O'zbekistonda bu boradagi ilg'or tajribasini Osiyo mamlakatlari vakillari bilan o'rtoqlashdik.

OHICHK Yoshlar kengashining keyingi yilgi ish rejasini qabul qilindi. Yig'ilishimiz bayoniy loyihalarda tashkilotga a'zo va kuzatuvchi mamlakatlar vakillari Samarqand shahrini Osiyo mamlakatlari yoshlarining ta'lim, madaniyat va kreativ tashabbuslari markazi sifatida e'tirof etdi. Bu xalqaro hamjamiyatning O'zbekistondagi yoshlar siyosati haqidagi yana bir e'tirofi bo'ldi. Muhokamalar chog'ida ko'tarilgan barcha taklif va tashabbuslar Osiyo mamlakatlari yoshlar masalasi bo'yicha kelgusi yilgi faoliyati, ko'p tomonlama xalqaro hamkorligida o'z aksini topadi.

Begench XOLNEPESOV,
Turkmaniston yoshlar tashkiloti xalqaro bo'limi boshlig'i:

— O'zbekistonlik hamkasblarimizga ushbu tadbiri yuqori darajada tashkil qilgani uchun samimiy minnatdori bildiraman. Forum hamma uchun mazmunli o'tdi. O'zbekiston va Turkmaniston strategik hamkorlardir. Shu bilan birga, Turkmaniston va O'zbekiston yoshlar tashkilotlari o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi

memorandum mavjud. Bunday ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlash kelgusida katta samara beradi. O'z navbatida, biz ham o'zbekistonlik hamkasblarimizni 16-18-noyabr kunlari Turkmanistonda o'tadigan forumda kutib qolamiz. Ularni yurtimizda ko'rishdan xursand bo'lamiz.

Mehmed Tayyip KAHYA o'g'li,
Turkiya Yoshlar va sport
ishlari vazirligining yoshlar
masalasi boshqarmasi boshlig'i
o'rinbosari:

— O'zbekiston har tomonlama rivojlanmoqda. Yoshlar masalasiga ham alohida e'tibor qaratilayotgani va ular uchun yaratilgan shart-sharoit, imkoniyatlar tahsinga sazovor. Bugun o'zbek yoshlarining barcha sohada erishayotgan yutuqlaridan xabarimiz bor. Ayniqsa, sport sohasida qo'lla kiritayotgan natijalari quvonarli. Shuningdek, ta'lim, madaniyat, san'atda ham ajoyib yangiliklar qilishyapti. Texnika, internet rivojlangani sayin dunyomiz kichrayib bormoqda. Shunday bir sharoitda o'zbek

yoshlarining dunyoga aytadigan muhim gaplari bor. Olam go'zal bo'lishi uchun intellektual salohiyatli yoshlarga ehtiyoj katta. O'zbek yoshlari shunday insonlar safida bo'lishiga chin qalbdan ishonamiz. Birgalikda qiladigan ishlarimizda ham yoshlarning o'rni muhim bo'ladi, deb o'ylaymiz.

— Davlatlarimiz rahbarlari o'zaro hamkorlikka katta e'tibor qaratyapti. Buni turli sohalar misolida ko'rishimiz mumkin. Masalan, O'zbekiston yoshlari har yili Ozarbayjonda o'tkaziladigan bir necha an'anaviy tadbirlarda qatnashadi. Bu forum ham ikki mamlakat yoshlari o'rtasida ilk bor o'tkazildi. Unda 200 ga yaqin o'zbek-ozar yoshlari ishtirok etarkan, ularning shijoati, yutuqlaridan quvondik. Bu davlatimiz rahbarining yurtimiz yoshlariga mehri, ishonchi, g'amxo'rliqi natijasi. Biz har ikki davlat yoshlari loyihalarini ko'rdik, takliflarini eshitdik. Bu borada ularga yo'l-yo'riq ko'rsatdik. Ikki millat yoshlari diidan suhbatlashib, tajriba almashdi. Bunday muloqotlarning bardavom bo'lishi xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik, ishonch va hamjihatlikni yanada mustahkamlashiga ishonchimiz komil.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri
Risolat MADIYEVA yozib oldi.



YANGICHA YONDASHUVLAR

G'OYADAN AMALGACHA
Hududlarni iqtisodiy yuksaltiradigan pillapoya

Xayolimizda o'ylab yurgan loyihalarimizni mahsulotga aylantirish oson kechadigan jarayon emas. Ishlab chiqaruvchi korxonalar esa mukammal rejaга asosan ish ko'radi. Innovatsion tumanlar bu borada yo'l ko'rsatuvchi, mahalliy olimlar g'oyasini "oyoqqa turg'azuvchi" bo'ladi. G'oyalarni takomillashtirish, mukammal biznes reja tuzish, zarur moliyaviy yordam, mahsulot ishlab chiqarishda bunday hududlar ko'magi asqotadi.

Prezidentimizning 2021-yil 1-apreldagi "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish sharoitida"gi farmoniga asosan, iqtisodiyotni jadralantirish tumanlari innovatsion hududga aylantirish vazifasi qo'yilgan edi. Hujjat ijrosini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar bois, bugun 28 ta tuman innovatsion maqomini oldi. E'tiborsiz, bunday hududlarda g'oyadan amalga oshirilgan jarayonlarni qamrab oladigan tizimni ishlar hududlarni iqtisodiy yuksaltiradigan pillapoya vazifasini o'tamoqda. Ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va boshqa sohalaridagi o'zgarishlarni o'z ichiga olgan yondashuv shakllanib, mahalliy olimlarning innovatsion g'oyalari har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotgani soha rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Buxoro viloyatining Romitan va G'ijduvon tumanlari innovatsion tumaniga aylantirilgan, — deydi Buxoro viloyati oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi bosh mutaxassisi Ikrom Murodov. — Davlatimiz rahbarining 2022-yil 6-iyuldagi farmonida yangi turdagi mahsulotlar va innovatsion texnologiyalar yaratishning g'oyadan yakuniy iste'molchigacha bo'lgan kompleks tizimini ta'minlash orqali innovatsiyalarga bo'lgan talabni rag'batlantirish asosiy vazifalardan etib belgilangan. Shuningdek, innovatsion tadbirkorlik natijasida yaratiladigan yangi ish o'rinlari sonini 4 barobar, ichki va tashqi bozorlarda tijoratlashtirish natijasida yaratiladigan yangi



innovatsion ishlanmalar sonini 2 barobar oshirish ko'zda tutilgan. Buxoro viloyatida 28 ta tijoratlashtirish va startap loyihasi amalga oshirilmoqda. Buning natijasida 35 turdagi yangi mahsulot va xizmat turi, 170 dan ortiq yangi ishchi o'rinlari yaratildi.

O'quvchi vaqtiga
moslashuvchan platforma

Avvaliga raqamli texnologiyalarning hayotimizga kirib kelishiyi sohalarida tatbiq etilishiga, samara berishiga shubha bilan qaragan bo'lsak, bugun ular bilan hamnafas yashab, birga qadam tashlashga o'rganib qoldik. Boisi, sun'iy intellekt mushkul deya baholangan har bir ishning udda-

sidan chiqish mumkinligini ko'rsatmoqda. Biz uzoq vaqt davomida bajaradigan yumushlarni robototexnika bir necha soniyada uddalashi mumkin. Deylik, bank hisob ishlari yoki xaridlarni o'n barobar tezroq amalga oshirish, fond bozoriga sarmoya kiritish. Muhimi, bunday texnologiyalar aniq maqsadga erishish uchun eng yaxshi imkoniyatga ega bo'lgan harakatlarni baholab, amalga oshirish qobiliyatiga ega.

Kuzatgan bo'lsangiz, bugungi kun yoshlari talab yuqori, ko'proq samara beradigan, katta daromad olish mumkin bo'lgan yo'nalishlarda faoliyat yuritishni afzal biladi. Avtomatlashtirilgan texnologiya bozorida robototexnikalarga talab kundan-kun oshib bormoqda. Ayni keza sohada yoshlarning ishtiroki katta ekanini fikrimiz isboti.

Internet texnologiyalarining rivojlanishi yangi kasblarning paydo bo'lishiga olib keldi. IT va Data (ma'lumotlar), marketing, logistika sohalarida sanoat robototexnikasi bo'yicha mutaxassislar talab ortib bormoqda. Umuman olganda, bugungi kunda yuqori texnologiyalardan foydalanmaydigan sohani topish qiyin.

Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi Navro'z Ergashev "Blockchain" texnologiyasi asosidagi sun'iy intellektga asoslangan onlayn ta'lim platformasini ishlab chiqib, amaliyotga joriy etdi.

— Sun'iy intellekt olami muhandislik va kompyuter imkoniyatlari hisobiga katta ta'sir ko'rsatish qudratiga ega bo'lib bormoqda, — deydi N.Ergashev. — Hozirgi kunda mustaqil yoki masofaviy tarzda ta'lim olishni xohlovchilar soni ortib boryapti. Foydalanuvchilar bo'sh vaqtdan kelib chiqib, ta'lim olish uchun erkin grafik tanlashni istaydi. Mana shu jihatlarni e'tiborga olib, ta'lim olish vaqtini erkin tanlash imkoniyatini taqdim etuvchi platforma yaratildi. Sun'iy intellekt tomonidan boshqariladigan mazkur platforma mavzular yuzasidan testlar tuzib, bilim



darajasini tekshirib boradi. O'quvchining testdagi xatolaridan kelib chiqib, aynan o'sha xato qilgan mavzusini yana qayta o'zlashtirishni ta'minlaydi va testni xatosiz bajarsagina keyingi mavzularga o'tishga ruxsat beriladi. Hozirda startap loyihamiz ishga tushirilgan va o'z o'quvchilariga ega.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan kuchli raqobat sharoiti kadrlardan o'z ustida doimiy ishlashni taqozo etadi. Ammo bu talabni bajarishda ba'zi to'siqlar yuzaga keladi. Masalan, doimiy ish joyiga ega bo'lgan xodimlar o'z garmas ta'lim grafiginu tanlay olmaydi. Bu borada sun'iy intellektga asoslangan moslashuvchan onlayn ta'lim platformasi juda qo'l keladi. O'quvchiga vaqt va joyini erkin tanlash imkoniyatini yaratib beradi. O'qituvchilar yoki biznes trenerlar esa o'z kurslarini mazkur platformaga joylashtirishi va bu orqali daromad olishi ham mumkin.

Yana bir gap, imkoniyati cheklanganlar uchun ham katta qulaylik sanalgan platforma ta'lim sifatini pasaytirmasdan operatsion xarajatlarni kamaytirishdek imkoniyatni taqdim etadi. Nufuzli xalqaro oliy ta'lim muassasalari olimlari va tadqiqotchilari

mazkur platforma orqali o'z ishlanmalarini keng omimga namoyish etishi, ular bilan integratsiyalashgan holda mahorat darslarini tashkil qilishi mumkin.

Mazkur platformada robototexnika, sxemotexnika, STEM robototexnika, xalqaro olimpiadaga tayyorgarlik ko'rish uchun malaka oshirish kurslari joylashtirilgan bo'lib, sun'iy intellekt o'quvchining tayyorgarlik darajasi va axborotni idrok etishning individual xususiyatlaridan kelib chiqib, unga mos dasturni tanlaydi.

Izlagan — olim bo'lar, o'ylagan — fozil, deganlaridek, yangi loyihalar yaratib, amaliyotga tatbiq etgan kishi ham o'zi daromad ko'radi, ham yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadi.

Bir yilda 52 marta hosil
yetishtirish mumkin

Agrosanoat kompleksining eng yirik sohalardan biri bo'lgan chorvachilik oziq-ovqat ta'minotida katta o'rin tutishi barobarida, sanoat uchun zarur xom-ashyo yetkazib berishi bilan ahamiyatli. Tarmoq ekin ekishga yaroqsiz yerlardan samarali foydalanish imkonini ham beradi. Aholini sifati sut va go'sht mahsulotlari bilan ta'minlash, o'z o'rinda chorvachilik ozuqasini yetishtirish ahamiyatli jihat ekanini ko'rsatadi.

"Megacluster" MCHJ rahbari Xurshidjon Rasulov chorvachilik, parrandachilik, quyonchilik va baliqchilik xo'jaliklari uchun maxsus tarkibidan iborat, minerallarga boy yashil gidroponik ozuqa yetishtirishni yo'lga qo'yd. Mahsulot tarkibi yantoq, arpa, makkajo'xori uni, beda va boshqa yovvoyi o'simliklarni o'z ichiga oladi.

Butun dunyoda chorvani oziqlantirishda, asosan, silos va omuxta yem ishlatiladi. O'tgan yili takroriy ekin sifatida makkajo'xorining intensiv navidan gektari 50-60 tonna silos olinganda, uning 1 kilogramm tannarxi bor-yo'gi 150 so'mni tashkil etgan. Vaholanki, o'sha vaqt 1 kilogramm sheluxaning bozordagi narxi 2 ming so'mdan oshar edi. Demochi bo'lganimiz, 10 barobar arzon ozuqani bemaol chorvadorlarning o'zi yetishtirsa bo'ladi. Anglasihladi, ozuqa turlari va sifatini yaxshilash qiyin jarayon emas.

— Ko'k o'tlar o'z tarkibida yuqori qiymatli proteinlar, almashmaydigan aminokislo-

talar, zarur tuzlar va mikroelementlarni saqlaydi, — deydi X.Rasulov. — 1 metr kvadrat yerda gidroponika usulida undirilgan dondan 25-28 kilogrammgacha ko'k massa olish mumkin. Buning uchun atigi 7 kun kifoya. Bu xuddi shu o'lchamdagi yerda bir yilda 52-marta hosil yetishtirish, 1300-1456 kilogrammgacha ko'k massa olish mumkin, degani. Ayni ko'rsatkich don va takroriy ekindan olinadigan dag'al xashak va silosga nisbatan ancha yuqori. Negaki, bir metr kvadrat yerda yetishtirilgan g'alladan 0,6 kilogramm somon, takroriy ekindan 4 kilogramm makkajo'xori, jami o'rta 4,6 kilogramm chorva ozuqasi olish mumkin. Hidroponika usulida yetishtirilgan 1 kilogramm yashil massada 0,9-1,2 foiz ozuqa birligi mavjud. Ozuqa maydalagich orqali qayta ishlanib, 90-95 foizgacha hazm bo'lishiga va xarajatni qisqartirishga erishiladi.

Chorva ozuqasining narxi va sifati go'sht tannarxini belgilovchi muhim omillardan biri. Buxoro viloyatining tuprog'i sho'r va cho'lli hudud. Cho'lida o'sadigan yovvoyi o'simliklardan foydalanib omuxta yem sifati oshirilsa, o'z-o'zidan go'sht va sut mahsulotlari tannarxi tushadi. Sohada resursitejoychi texnologiyalarni keng o'lchash orqali olinadigan mahsulot unumdorligini oshirish har qachongidan ham zarur. Tuproq unumdorligi anchayin past, suv taqchilligi kuzatiladigan hududlarda gidroponika usulida yem yetishtirish o'zini oqlaydi.

Hozir dunyoning innovatsion drayverlari — raqamlashtirish va ilg'or ilm-fan. Iqtisodiy mo'jiza yaratish uchun barcha sohalarini raqamlashtirish va ilm-fanni rivojlantirish zarur. Yangi loyihalarining chekka hududlarga jadal kirib borishi, amaliyotga tatbiq etilishi odamlarda har bir sohada muammolari ilmiy yondashib hal etasa bo'lishiga, import hisobiga olib kelinayotgan har qanday mahsulotni o'zimizda ishlab chiqarishga ishonch uyg'otadi. Inson tafakkuri keng, unda butun dunyo aks etishi mumkin. Demak, bashariyatga tegishli muammolarning yechimi ham aql-zakovat shuuriyati orqali topiladi. Ilmiy izlanuvchilardan innovatsion tafakkur mahsul bo'lgan yangi g'oya va mahsulotlarni kutib qolamiz.

Feruza JO'RAYEVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



21-OKTABR — O‘ZBEK TILI BAYRAMI KUNI



MULOQOT

TILIMIZ TARAQQIYOTI YO‘LIDA BIRLASHSAK, *ulkan qudratimiz*

Davlat tilida ish yuritish bo‘yicha maslahatchilarning birinchi respublika seminaridan ko‘zlangan maqsad shunday

Kuz yomg‘iridan tozarib, oltinrang yaproqlari yastangan Adiblar xiyoboni havoning avzoyiga qaramay, doimgidek gavjum. Dillar Alisher Navoiy bobomiz haykali poyiga qo‘yilgan alvon gullardan ravshan tortdi. Davlat tilida ish yuritish bo‘yicha maslahatchilarning ilk respublika seminarini buyuk allomaga ehtirom ko‘rsatishdan boshlanganiga ortiqcha izoh shart emas. Xiyobonda tilimizning Nizomiddin Mahmudov, Isajon Sulton kabi fidoyilari bilan “Adabiyot — xalqning yuragi” mavzusidagi uchrashuvdan so‘ng ishtirokchilar Yozuvchilar uyushmasida jam bo‘ldi. Maslahatchilar malakasini oshirish hamda faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashish maqsadida tashkil etilgan seminar boshlandi.

Tadbir avvalida Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti rahbari Nodir Xolbo‘tayev o‘zbek tilining nufuzini oshirish borasidagi sa‘y-harakatlar hamda tizimli ishlarga to‘xtalib, ishtirokchilarni yaqinlashib kelayotgan O‘zbek tili bayrami bilan tabrikledi.

— Davlat tilida ish yuritish masalalari bo‘yicha maslahatchilar faoliyat boshlagandan buyon o‘tgan vaqt mobaynida ular duch kelayotgan muammolarga yechim topish yuzasidan tajriba orttirish kerakligi ayon bo‘lib qoldi, — dedi departament rahbari. — Shu ma’noda, biz respublika miqyosida seminar tashkil etib, mutaxassislarini ham taklif qildikki, ular maslahatchilarimizni qiziqtirgan, o‘ylantirib turgan masalalar, savollar yuzasidan chiqishlar qilaypti. Aytilik, tashqi yozuvlar, reklamalar bo‘yicha muammolarga qanday yechim topish kerak? Joylarga nom berish, davlat tili talablariga muvofiq ish yuritish bilan bog‘liq masalalarda munozaralar bo‘ladi. Shuningdek, o‘zbek ismlari, milliy nomlar qo‘yish



QR-kodni skaner qilish orqali videoqa o‘ting!



bo‘yicha yaratilgan yangi platformalar, dasturlar taqdimotlari ham bor. Umuman olganda, seminarning bosh maqsadi — barcha maslahatchilarni bir manzilda jamlab, eng ilg‘or tajribalarni ommalashtirish. Bunday seminarlarni kelgusida kattaroq forum shaklida muntazam davom ettirishni ko‘zda tutganmiz. Zero, ushbu tadbirlar bizni bir maqsad atrofida birlashtiradi, bir-birimizni yaqindan tanishimiz va qo‘llab-quvvatlashimizga xizmat qiladi.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yillik tantanasi ona tilimiz tarixida tub burilish nuqtasi bo‘ldi, deyish mumkin. Chunki o‘sha kundan boshlab davlat tiliga e‘tibor yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘zbek tili bayrami kuni belgilandi. Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etilib, barcha rahbar kadrlarning davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchilari ish boshladi. O‘tgan davr mobaynida ular tomonidan lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida ish yuritish yo‘lga qo‘yildi, oldin aniq bo‘lmagan atamalarining o‘zbekcha muqobilarni topish bo‘yicha salmoqli ishlar qilinmoqda. Lekin shiddat bilan odimlayotgan davr oldimizga yangi-yangi vazifalarni qo‘yishi tabiiy. Prezidentimiz bu yilgi saylovoldi dasturida ham davlat tilini rivojlantirish bo‘yicha muhim vazifalarni kun tartibiga qo‘ygani bejiz emas. Bu vazifalarni bajarish uchun yaratilgan tizim yanada samaraliroq ishlashi kerak.



— Til bayrami oldidan tadbirlar o‘tkazish an‘anaga aylangan, — dedi Qashqadaryo viloyati hokimining ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta‘minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi Ziyoda Aminova. — Aslida, davlat tili haqida qayg‘urish, himoya qilish, tilni asrash, uni avlodlarga bezavol yetkazish har kunlik ishimiz. Zero, seminar ochilishida aytilganidek, bu tafakkur bayrami. Tafakkurimizni boyitishni esa har kuni o‘ylashimiz kerak. Davlat tiliga e‘tibor, uning nufuzini oshirish haqida gap ketar ekan, avvalo, xat-hujjatlarning lotin yozuviga bexato bo‘lishiga ham alohida e‘tibor qaratamiz. Chunki talab shunday. Bu borada Vazirlar Mahkamasining alohida qarori qabul qilingan. O‘z vaqtida tashkil

vositalari ortida tadbirkorlarning muayyan miqdordagi mablag‘i yotibdi. “Reklama to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi ham ular tomonidan bo‘ladigan qarshiliklarga ancha barham berdi, — deydi Buxoro viloyati hokimining ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta‘minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi Akbar Rustamov. — 2 yilcha avval hududdagi 30 foizga yaqin geografik obyektlar nomlari milliy mafkuramizga monand emasdi. Respublika toponimika markazi yordami bilan ana shunday joylar milliyligimizdan kelib chiqib nomlandi. O‘ylaymanki, bu boradagi ishlarni yanada rivojlantirishda bugungi seminar katta amaliy yordam beradi.



Ikki kun davom etadigan seminar doirasida “Raqamli Toshkent” geoaxborot tizimi hamda milliy nom.uz platformasi taqdimotlari, an‘anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan “Qadring baland bo‘lsin, ona tilim!” tanlovi g‘oliblarini taqdirlash marosimi rejalashtirilgan.

Maslahatchilarning fikr-mulohazalarini tinglar ekanmiz, respublika miqyosida tashkil etilgan seminar tizimida yangi-yangi yutuqlarga erishishda katta yordam berishiga umid bog‘ladik. Ular ishonch bilan ta’kidlaganidek, seminar, avvalo, ish faoliyati mobaynida uchrayotgan muammolarni yechishga yordam bersa, ikkinchi tomondan, mazkur faoliyatda yangi sifat bosqichiga ko‘tarilishga ham xizmat qiladi.

Tadbir taassurotlari bilan qaytar ekanmiz, bir maslahatchining hamkasblarimizga berayotgan intervyusidagi quyidagi jumalardan ko‘nglimiz tog‘dek ko‘tarildi:

— Barchamiz bu yilgi bayramni o‘ziga xos, keng miqyosda, ochiq joylarda sayil tarzida tashkil etishda jonbozlik ko‘rsatishga kelishib oldik. Odamlarimiz bu bayramning umumxalq bayrami ekanini his qilishi uchun bor kuch-g‘ayratimizni ishga solamiz.

**Munajat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

Emir KUSTURITSA:

“O‘ZBEKISTON HAQIDAGI FIKRIMDA SOBITMAN

U – SIVILIZATSIYALAR CHORRAHASIDAGI MAMLAKAT”

Kecha qator bosma va elektron nashrlar rejissyori Muzaffar Erkinovning “Mubolag‘asiz, g‘urur tuydim...” sarlavhali maqolasini e‘lon qildi. O‘zbek rejissyori yaqinda mamlakatimiz mezbonlik qilgan XV Toshkent xalqaro kinofestivaliga mehmon bo‘lib kelgan Emir Kusturitsaning taassurotlariga asoslangan samimiy maqolasida xorijlik hamkasbi kechinmalarining chiroyli bayonini keltirgan.



Yevropaning eng yirik kinofestivali, shu jumladan, Kann kinofestivalida ikki marta “Oltin palma yaprog‘i”ni olishga musharraf bo‘lgan yagona ijodkor, kelib chiqishi bosniyalik kinorejissyor va aktyor bilan Toshkent kinofestivali doirasida suhbatlashish imkoniyati bo‘lmagan edi.

Shuning uchun Muzaffar Erkinov bilan bog‘landik, yaxshi maqola yozgani bilan tabrikladik. Darvoqe, Ozarbayjonda Turk dunyosi III “Qo‘rqut ota” kinofestivali o‘z ishini yakunladi. Unda Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi direktori Firdavs Abdullayev turkiy dunyo kinematografiyasi rivojiga qo‘shgan hissasi uchun maxsus mukofot bilan taqdirlandi. Shuningdek, kinofestivalda rejissyorlar Muzaffar Erkinov “Abdulla Oripov” badiiy filmi uchun “Eng yaxshi ssenariy”, Shuhrat Mahmudov “Mening doiram” hujjatli filmi uchun “Eng yaxshi hujjatli film” nominatsiyalari bo‘yicha g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. Ushbu e‘tirof bilan ham ijodkorni muborakbod etdik.

— Muzaffar, bilishimizcha, ham o‘yibona ustozingiz, ham do‘stingiz Emir Kusturitsa hozir qisqa ta’lida ekan. U yurtimizga safari davomida tig‘iz jadvalda ishladi, suhbatlashishga imkonimiz bo‘lmadi. Rejissyor bilan bog‘lanib, ayrim savollarimizga javob olishda yordamingiz kerak.

— Texnika rivojlangan asrda bu muammo emas, jonim bilan!

Hech qancha fursat o‘tmay, jahon kinosi rivojiga ulkan hissa qo‘shgan “Yashamoq — bir mo‘jiza”, “Arizona orzusi”, “Oq mushuk, qora mushuk”, “Andegraunt”, “Lo‘lilar soati” kabi mashhur filmlar muallifi, rejissyor, aktyor va musiqachi Emir KUSTURITSA va uning prodyseri Mirko RADINOVICH bilan ijtimoiy tarmoqlar orqali aloqa o‘rnatildi, onlayn rejimda savollarimizga javob oldik.

— Bugun o‘zbek matbuotida sizning yurtimizga tashrifingiz taassurotlari yoritilgan maqola e‘lon qilindi. Biroq u Toshkent va Samarqandda bo‘lib turgan vaqtigingiz bilan bog‘liq hamda muallif — hamkasbingiz tilidan berilgan. Mana, o‘z mamlakatingizga qaytdingiz, oradan vaqt o‘tdi. Tahill, tashbeh va xulosalaringiz o‘zgarmadimi?

— Avvalo, aytishim kerak, O‘zbekistondan qaytganimdan so‘ng ham menga ko‘rsatilayotgan bunday e‘tibordan minnatdorman. Do‘stim, hamkasbim Muzaffarning maqolasi e‘lon qilingani va unda bildirilgan izhorlardan qisman xabarim bor. O‘zbekiston haqidagi fikrlarimda sobit qolaman va hamon safar hayajoni meni tark etmagani ta’kidlamog‘chiman. Men Toshkent va Samarqand shaharlarining go‘zalligidan, mafunkorligidan, ixlosmandlarning kino san‘atiga hurmati, uni teran anglashi va tushunishidan, Toshkent xalqaro kinofestivalining yuqori saviyada o‘tganidan qanday hayratlangan bo‘lsam, xalqningizning samimiyligi, mehmondos‘tligi, e‘tiboridan shuncha ta’sirlandim.

Shaharlaringiz sayilgoh va istirohat bog‘lariga boy, kirgan va sayr qilayotgan odamni sehrlab qo‘yadigan darajada ertaknamo ekaniga guvoh bo‘ldim. Turli yosh, din, irqdagi odamlar o‘zlarini birdek xotirjam, bexavotir his qilayotganini ko‘rdim. Oilasi, farzandlari bilan har qadamdai favvoralar sharqirab turgan tungi ko‘chalarni, muzeylarni eslatib yuboruvchi

tamaddixonalarni to‘ldirib, hordiq chiqarayotgan har xil dinga mansub, liboslari ham turlicha rusumda bo‘lgan fuqarolar bilan salomlashdim. Bu demokratiyaning oliy ko‘rinishidir. Bu O‘zbekistonning sivilizatsiyalar chorrahasida ekaniga ishora edi.

— Dunyoning yetakchi kino mutaxassislari sizga “oldinni ko‘ra bilish, bashorat qilish qobiliyatiga ega, buni o‘z ijodi, yaratgan filmlari orqali ham isbotlagan, jamiyatining qarashlarini o‘zgartirishga qodir ijodkor”, deya ta’rif beradi. O‘zbekistonning kelajagi, xususan, kinosanoati istiqbollari haqida qanday fikrdasiz?

— Men Yer sayyorasining bir fuqarosi sifatida, o‘z tahlillarimga tayanib, dunyoning kelajagini Osiyoda ko‘raman. O‘zbekiston esa Osiyoning ajralmas qismi, boz ustiga Markaziy Osiyodek muhim mintaqada yetakchi pozitsiyaga ega mamlakat. Kelajakka nazar tashlash shart emas, bugunning o‘zida Osiyo davlatlari qanday rivojlanib borayotganini ko‘rib turibmiz. Ishonamanki, O‘zbekiston eng oldingi saflardan mustahkam o‘rin oladi. Iqtisod rivojlangani sari milliy kino san‘ati ham taraqqiy etib boradi. Buning uchun sizlarda ulkan salohiyat ham, imkoniyat va sharoit ham yetarli.

Mening qadrdonim, ayni paytda prodysyerim Mirko Radinovich 1991-yilda ilk bor mamlakatimizda bo‘lgan. Kechagi safarda menga hamrohlik qildi. O‘zgarishlardan, islohotlardan og‘zi ochilib qoldi. Muzaffar Erkinov guvoh, tungi “Toshkent siti”da aylanib yurganimizda Fransiyada bo‘lib turgan sayohatchi do‘stlarimiz bilan telefon orqali gaplashdi. Ularga “Parijda nima bor, Toshkent yoki Samarqandga kelinglar”, deya xitob qilganidagi hayajonini, gaplari samimiy va chin yurakdan chiqayotganini hammamiz sezdik.

Yana bir gap, faqat hech kimga aytmang (kuladi). Toshkent xalqaro kinofestivaliga qizim Dunyani ham olib kelgandim. Men tadbirma-tadbir yurganimga u ko‘plab manzillarni aylandi, ko‘rdi, o‘ziga O‘zbekistondan do‘stlar orttirdi. Qaytishda qizim bilan safar taassurotlari haqida gaplashishga imkon bo‘lmadi, men o‘z ishlarni, u o‘z yumushlari bilan band bo‘ldik. Lekin bilasizmi, kecha u menga nima dedi? “Parijdagi uyimni sotib, Toshkentdan uy olish haqida o‘ylayapman”, dedi. Qizimning bu gapi menda boshqa savol qoldirdi.

— Navbatdagi kinofestivalda ishtirok etish uchun Toshkentga yana kelish rejangizda bormi?

— Menimcha, navbatdagi festivalni kutib o‘tirmayman. Imkon tug‘ilsa, yana O‘zbekistonga bormog‘chiman. Ishonamanki, yurtningizda men ko‘rmagan va hayratimga hayrat qo‘shadigan manzillar, jihatlar ko‘p. Qolaversa, Prezidentingiz Shavkat Mirziyoyev boshlagan keng islohotlar bugun avj pallada va izchil davom etmoqda. Yuni men yana guvoh bo‘ladigan beqiyos va ko‘lamli o‘zgarishlar oldinda. O‘zbekiston kun sayin nafaqat Osiyoning, balki jahonning yetakchi mamlakatlari safidan joy olish sari dadil qadam tashlayapti. Ushbu jarayonni bevosita kuzatish, taraqqiyotning ichida bo‘lish istagidaman.

— Demak, Toshkentda ko‘rishguncha, janob Kusturitsa!

**Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DUK

**MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi**

Qabulkona: (71) 233-56-33

Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-1046.

43312 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.

Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug‘murodov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manziliimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy

Topshirildi — 00:00